



MDH DOIRASIDA AMALIY HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARINI KENGAYTIRISH BARQAROR TARAQQIYOTNI TA‘MINLASHDA MUHIM PLATFORMA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 9-10-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 10-oktabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon raisligida o‘tgan sammit ishida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan hamda MDH bosh kotibi Sergey Lebedev ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, Hamdo‘stlik doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida global siyosat va iqtisodiyotdagi oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar hamda xalqaro institutlarning roli zaiflashib borayotganiga qaramasdan, MDH o‘zining barqarorligi, samaradorligi va zarurligini namoyish etishda davom etayotganini ta’kidladi.

O‘n yillar davomida yo‘lga qo‘yilgan mexanizmlar va aloqalar tufayli iqtisodiy,

ijtimoiy va gumanitar masalalarning barcha yo‘nalishlarida yaqindan hamkorlik qilinmoqda.

— Biz MDH doirasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, tabiiy shirkatlarimiz bo‘lgan mamlakatlar bilan amaliy hamkorlikning samaradorligini oshirishdan manfaatdormiz, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

So‘ng mamlakatimiz yetakchisi Hamdo‘stlik doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Jahon iqtisodiyotidagi vaziyatning keskinlashishi, proteksionizmning kuchayishi va barqaror rivojlanish yo‘lida yangi xavf-xatarlar yuzaga kelayotganini hisobga olgan holda iqtisodiy shirkatlikni kengaytirish tashkilotining so‘zsiz ustuvor yo‘nalishi ekanini ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekistonning MDHdagi shirkatliklari bilan tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yili 11 foizga oshgani va bu ko‘rsatkich joriy yilda ham o‘zida davom etayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Bunday ko‘rsatkichlar tarmoqlararo kooperatsiya chuqurlashtirish va mamlakatlarimiz o‘zaro investitsiyalar oqimi ko‘payib borayotgani tufaylidir.

Mavjud imkoniyatlarni yanada to‘liq ishga solish, hamkorlikning bugungi sur‘atini saqlab qolish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti birgalikdagi sa‘y-harakatlarni quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga qaratishni taklif etdi.

Birinchidan, tovar ayirboshlashni ko‘paytirish uchun yanada qulay sharoitlarni shakllantirish.

Alohida tovarlarni, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish jarayonida tartib-taomil va talablarni soddalashtirish va milliy bozorlarga kirish, jumladan, davlat xaridlarida ishtirok etish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, MDH Iqtisodiy kengashi doirasida tashqi konyunktura o‘zgarishlariga tezkor javob berish va savdo oqimlari yo‘nalishini o‘zgartirish bo‘yicha mexanizmlarni ishga tushirish, texnik to‘siqlar va muvofiqlikni baholashga oid hujjatlarni tan olish to‘g‘risidagi bitimlar loyihalarini kelishish borasidagi ishlarni faollashtirish maqsadga muvofiq ekaniga e‘tibor qaratildi.

Ikkinchidan, transport sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish.

MDH makonidagi transport tarmog‘ida mavjud yo‘laklar samaradorligini pasaytirayotgan muammoli holatlar hamon saqlanib qolayotgani qayd etildi. Bu barcha turgan transportlar bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini tashkil etishni taqozo etmoqda.

Yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish muhimligini hisobga olib, O‘zbekistonda

transport sohasida davlat-xususiy shirkatlikni kengaytirish masalalari bo‘yicha konferensiya o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Uchinchidan, o‘zaro investitsiyalar o‘zishini rag‘batlantirish va kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Bu borada maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash, kooperatsiyani chuqurlashtirish va biznesni jalb qilgan holda innovatsion startaplarni ilgari surish uchun MDHning Venchur platformasini yaratish, kelgusi yilda Toshkentdagi “INNOPROM” ko‘rgazmasi negizida Innovatsion sanoat forumini o‘tkazish taklif qilindi.

To‘rtinchidan, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston rahbari ta’kidlaganidek, bugungi kunda MDHdagi shirkatliklar bilan an’anaviy va muqobil energiya manbalaridan foydalanish, jumladan, atom elektr stansiyalari qurilishi sohasida qator yirik strategik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari MDH mamlakatlarida energetika sektorini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish va amalga oshirishni taklif etdi.

Beshinchidan, raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik.

Davlatimiz rahbari joriy yil avgust oyida Samarqandda o‘tgan “MDHda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro forum bu sohadagi kooperatsiya borasida o‘zaro qiziqish va imkoniyatlar ortib borayotganini ko‘rsatganini ta’kidladi. Shu munosabat bilan ushbu sohada Amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha ko‘p tomonlama harakatlar rejasini ishlab chiqishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbari fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohaslarida qo‘shma loyiha va dasturlarni kengaytirish muhimligiga alohida e‘tibor qaratdi.

— Mamlakatlarimizda ta’lim sektori va mehnat bozori jadal rivojlanayotganini hisobga olib, Diplomalr, malaka va akademik dasturlarni o‘zaro tan olish to‘g‘risida yangi davlatlararo kelishuvni tayyorlash, Professional standartlar va malaka talablarini qurilishi sohasida qator yirik strategik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari MDH mamlakatlarida energetika sektorini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish va amalga oshirishni taklif etdi.

Beshinchidan, raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik.

maxsus xizmatlar o‘rtasidagi tizimli va yaqin aloqalarni davom ettirish muhimligiga e‘tibor qaratdi. Afg‘onistondagi vaziyat alohida e‘tiborni talab qiladi.

— O‘zbekiston Afg‘onistonda uzoq muddatli tinchlik, osoyishtalik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning qat’iy tarafdori ekanini ta’kidlayman. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatda yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda birgalikda ishtirok etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif etamiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

So‘zining yakunida Shavkat Mirziyoyev Sergey Lebedevning MDH Bosh kotibi lavozimiga qayta tayinlanishini qo‘llab-quvvatlashda Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga tashkilotga raislikni qabul qilib olgani munosabati bilan muvaffaqiyatlar tiladi.

Yig‘ilishda Hamdo‘stlikka a’zo boshqa mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari ham so‘zga chiqdi.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha kelishuv va qarorlar to‘plamini imzolandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli hamkasblar!

An’anaviy iliq qabul va bugungi sammitimizni ajoyib tarzda tashkil etgani uchun Tojikiston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Emomali Sharipovich Rahmon sha’niga bildirilgan samimiy minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Tojikistonning MDHga samarali raisligini, bu davrda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p tomonlama shirkatlik yangi sur‘at bilan rivojlana boshlaganini alohida qayd etishni istar edim.

Global siyosat va iqtisodiyotdagi muvoqatlar, oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar kechayotgan sharoitda, xalqaro institutlarning roli zaiflashib borayotgan bir vaziyatda MDH o‘zining barqarorligi, samaradorligi va zaruriy tuzilma ekanini namoyish qilishda davom etayotganini ta’kidlamogochiman.

O‘n yillar davomida yaratilgan mexanizmlar va yo‘lga qo‘yilgan muloqotlar tufayli iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar masalalarga oid barcha jabhalr bo‘yicha yaqin hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Biz MDH doirasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, tabiiy shirkatlarimiz bo‘lgan mamlakatlar bilan amaliy hamkorlikning samaradorligini oshirishdan manfaatdormiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston ko‘p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish bo‘yicha bildirilgan baho va takliflarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy shirkatlikni kengaytirish biz uchun, hech

shubhasiz, ustuvor yo‘nalishdir. Jahon iqtisodiyotida vaziyat yomonlashib, proteksionizm kuchayib borayotgani, barqaror taraqqiyotga yangi tahdidlar paydo bo‘layotganini hisobga olganda, bu alohida muhim ahamiyatga egadir.

Ta’kidlash zarurki, o‘tgan yili O‘zbekistonning MDHdagi shirkatliklari bilan savdo aylanmasi hajmi 11 foizga o‘tdi. O‘zaro savdoda o‘shah hajmi joriy yilda ham ta’minlanmoqda.

Bunday ko‘rsatkichlar tarmoqlararo kooperatsiya chuqurlashtirish va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi investitsiya oqimlarining ko‘payishi bilan bevosita bog‘liqdir. Jadal hamkorligimiz sur‘atlarini saqlab qolish maqsadida mavjud resurslarni yanada to‘liq ishga solish hal qiluvchi masala, deb hisoblaymiz.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlarimizni quyidagi ustuvor masalalarga yo‘naltirishni taklif etamiz. Birinchidan, savdo aylanmasini kuchaytirish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni shakllantirish.

Bu o‘rinda so‘z alohida tovarlarni, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish jarayonida tartib-taomil va talablarni soddalashtirish va milliy bozorlarga kirish, jumladan, davlat xaridlarida ishtirok etish haqida bormoqda.

Mamlakatlarimiz bozorlarini o‘zaro mos holda kengaytirish muhimdir. Shu munosabat bilan MDH Iqtisodiy kengashi doirasida tashqi konyunktura o‘zgarishlariga tezkor javob berish va savdo oqimlari yo‘nalishini o‘zgartirish

bo‘yicha mexanizmlarni ishga tushirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, texnik to‘siqlar va muvofiqlikni baholashga oid hujjatlarni tan olish to‘g‘risidagi bitimlar loyihalarini kelishish borasidagi ishlarni faollashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, transport sohasida o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratishni istar edim.

Afsuski, MDH makonida transport tarmog‘ida amaldagi yo‘laklarning o‘tkazish samaradorligini pasaytiradigan muammoli holatlar hamon saqlanib qolmoqda.

Barcha transport turlari bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini yaratishni zamonning o‘zi talab etmoqda, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish bo‘yicha hamon saqlanib qolmoqda. Barcha transport turlari bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini yaratishni zamonning o‘zi talab etmoqda, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, o‘zaro investitsiyalarning o‘zishini rag‘batlantirish va kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Hamkorlik bo‘yicha to‘plangan ijobiy tajribani hisobga olib, mamlakatlarimizda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish va ko‘llab-quvvatlashga oid “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashni taklif etaman.

Biznesni jalb etgan holda kooperatsiyani chuqurlashtirish va innovatsion startaplarni ilgari surish MDHning Venchur platformasini yaratishga xizmat qiladi.

Kelgusi yili Toshkent “INNOPROM” ko‘rgazmasi doirasida mamlakatlarimiz hududlari va yetakchi kompaniyalarining keng ishtirokida MDH innovatsion sanoat forumini o‘tkazishga tayyormiz.

Agar hamkasblarimiz ma’qullashsa, MDH Iqtisodiy kengashiga qo‘shma loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga ko‘rsatma berishni taklif etaman.

To‘rtinchidan, energetika sohasidagi hamkorlik muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda MDHdagi shirkatlarimiz bilan an’anaviy va muqobil energiya manbalaridan foydalanish, jumladan, atom elektr stansiyalari qurilishi sohasida qator yirik strategik loyihalarini amalga oshiryapmiz.

Biz, MDH mamlakatlarida energetika sektorini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish tarafdorimiz.

Beshinchidan, raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik alohida e‘tiborga molikdir.

Joriy yilning avgust oyida Samarqandda tashkil etilgan “MDHda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro forum kooperatsiya borasida o‘zaro

qiziqish va imkoniyatlar o‘zib borayotganini ko‘rsatdi.

MDH bo‘yicha shirkatlarimizning bu sohadaagi faol sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaymiz va Amaliy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha ko‘p tomonlama reja ishlab chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Biz ilm-fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohasida qo‘shma dasturlarni kengaytirishdan manfaatdormiz.

Mamlakatlarimizda ta’lim sektori va mehnat bozori jadal rivojlanayotganini hisobga olib, Diplomalr, malaka va akademik dasturlarni o‘zaro tan olish to‘g‘risida yangi davlatlararo kelishuvni tayyorlash, Professional standartlar va malaka talablarini uyg‘unlashtirish mexanizmini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz.

Kun tartibiga innovatsion ekotizimlarni shakllantirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash uchun Yoshlar laboratoriyasini yaratish masalasini kirigan holda, MDH Yoshlar forumini Xivada qabul qilishga tayyormiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bugun mamlakatlarimizning xavfsizligi va barqarorligiga nisbatan umumiy xavf-xatar va tahdidlar haqida ko‘p aytiladi.

Tashqi siyosat idoralari va maxsus xizmatlar yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli va yaqin aloqalarni davom ettirish muhimdir. Bu o‘rinda so‘z hamkorlikni muvofiqqlashtirish, axborot

almashish va qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish haqida bormoqda.

Hamdo‘stlikning janubiy chegaralari haqida so‘z yuritir ekanimiz, Afg‘onistonda saqlanib qolayotgan murakkab vaziyatni unutmashimiz kerak. Ushbu mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz chuqurlashtirib borayotganini hisobga olsak, unding hududidan bo‘ladigan xavf-xatar va tahdidlar saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Afg‘onistonda uzoq muddatli tinchlik, osoyishtalik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning qat’iy tarafdori ekanini ta’kidlayman.

Shu munosabat bilan ushbu mamlakatda yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda birgalikda ishtirok etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Biz hurmatli Sergey Nikolayevich Lebedevni Hamdo‘stlik Bosh kotibi lavozimiga qayta tayinlanishini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

So‘zinning yakunida Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga MDHda raislikni qabul qilib olgani munosabati bilan muvaffaqiyatlar tilayman.

Ishonchim komil, ushbu uchrashuv va qabul qilinaotgan qarorlar o‘zaro manfaatl ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirishga imkon yaratadi, xalqlarimiz va mamlakatlarimizning ravnaqi va farovonligi yo‘lidagi umumiy maqsadlar va vazifalarimizga erishishga xizmat qiladi.



Bugungi notinch va tahlikali zamonda Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy muloqot uchun muhim platformaga aylandi. Bu tashkilot nafaqat a’zo davlatlar o’rtasidagi madaniy-tarixiy birlik va muloqotni kengaytirish, balki ularning xalqaro maydondagi mavqeini oshirish, siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik tuzilmasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Odiljon MAMATKARIMOV,

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

TASHABBUS VA TAKLIFLAR

O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNING YANGI IMKONIYATLARIGA ZAMIN

Qolaversa, an’anaviy global tartib-qoidalar o’zgargan bir vaqtda Turkiy davlatlar tashkiloti jahon maydonida xalqaro majburiyatlarni bajarish, mintaqaviy ishonchsizlikka qarshi kurashish, turli siyosiy va iqtisodiy manfaatlar to’qnashuvini oldini olish, G’arb bilan Sharq o’rtasidagi muvozanatni saqlashda geostrategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, mintaqada energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, Sharq va G’arb, Shimol va Janub o’rtasida yangi transport yo’laklarini yaratish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, investitsiyalar oqimi va turizmni rivojlantirish, ta’lim va ilm-fan hamkorlik yo’nalishlarini kengaytirishga intilmoqda.

TDTDa O’zbekiston sharqiy (Qozog’iston, Qirg’iziston) va g’arbiy (Ozarbayjon, Turkiya) a’zolar o’rtasida bog’lovchi davlat sifatida geosiyosiy strategik ahamiyatga ega va yurtimiz tuzilmaning faol va tashkilotchi a’zosi hisoblanadi. Qolaversa, O’zbekiston aholisi, iqtisodiy salohiyati va yangi siyosati

tufayli yildan yilga tashkilotning asosiy tayanchlaridan biriga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, so’nggi yillarda davlatimiz rahbarining ochiqlik siyosati sababli O’zbekiston mintaqada ishonchli va faol ishtirokchi sifatida shakllandi. Tashabbuskor davlat maqomida tashkilot doirasidagi muhim loyihalarni, xususan, transport, energetika, iqtisodiyot, investitsiya, ta’lim, turizm va madaniyat sohalarida muhim

takliflarni ilgari surdi. Jumladan, TD’ning 2019-2024-yillar davomida bo’lib o’tgan sammitlarida Shavkat Mirziyoyev ko’p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 98 ta aniq tashabbus va taklif bilan chiqdi. Hozirga qadar ulardan 67 tasi amalga oshirildi, 6 tasi yakuniy bosqichda. Eng muhimi, bu tashabbus va takliflar tashkilot nufuzini yanada oshirish, davlatlar o’rtasida hamkorlik yo’nalishlarini kengaytirish,

tashkilotning xalqaro maydondagi strategik ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bu gal ham TD’ning Gabala sammitida Prezidentimiz turkiy dunyo birdamligini mustahkamlash, jahon siyosati, iqtisodiyoti va gumanitar sohadagi rolini oshirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari sammitda mintaqaviy va global xavfsizlik masalalari bo’yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlari rahbarlarining birinchi qo’shma uchrashuvini o’tkazish, Turkiy davlatlar tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo’yicha doimiy kengashini tuzish, Turkiy davlatlarning sanoat alyansi, “Turkiy yashil yo’laklar” tizimi va “Yashil transformatsiya” konsorsiumini tashkil etish hamda turkiy organik mahsulotlarning yagona brendini jahon bozoriga olib chiqish kabi muhim tashabbuslar bilan chiqdi.

“

TD’ning 2019-2024-yillar davomida bo’lib o’tgan sammitlarida Shavkat Mirziyoyev ko’p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 98 ta aniq tashabbus va taklif bilan chiqdi. Hozirga qadar ulardan 67 tasi amalga oshirildi, 6 tasi yakuniy bosqichda. Eng muhimi, bu tashabbus va takliflar tashkilot nufuzini yanada oshirish, davlatlar o’rtasida hamkorlik yo’nalishlarini kengaytirish, tashkilotning xalqaro maydondagi strategik ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

YEVROOSIYO KELAJAGI KO‘P JIHATDAN O‘ZBEKISTON KABI BARQAROR MAMLAKATLARGA BOG‘LIQ

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-10-oktabr kunlari Tojikistonda amaliy tashrif bilan bo’lib, Dushanbe shahrida o’tgan MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “Markaziy Osiyo — Rossiya” ikkinchi sammitida ishtirok etdi.

Bu muhim voqealar ahamiyatli bo’lib, mintaqaviy jarayonlarning yangi strategik dinamikasini o’zida aks ettiradi. Tahlilchilarning fikricha, ushbu tadbirlar rasmiy Toshkentning mintqa davlatlari o’rtasida ishonch va o’zaro hamjihatlikni mustahkamlovchi tashabbuslar va muloqotlar markazi sifatidagi roli ortganini ko’rsatdi.

O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar hamkorlar tomonidan qo’llab-quvvatlanib, O’zbekiston yaxshi qo’shniçilik, ochiqlik va o’zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

Ekspertlarning qayd etishicha, Dushanbedagi oliy darajadagi uchrashuvlar natijalari butun mintqa uchun barqarorlik va farovonlikni ta’minlash bo’yicha sa’y-harakatlarni yanada birlashtirish uchun asos bo’ladi.

Karlos Uriarte SANCHES, Panevropa ittifoqi prezidenti (Ispaniya):



— O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzasi uning strategik dunyoqarashi, uzoqni ko’ra bilishi, mintaqada va jahon miqyosida kechayotgan jarayonlarni chuqur anglaganini yana bir bor namoyon qildi.

Davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya o’rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbusi o’zaro hurmat, teng huquqlilik, barcha tomonlar uchun amaliy manfaatlar tamoyillariga asoslangan xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvni o’zida aks ettirgani alohida e’tiborga molik.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mintaqada tizimli siyosiy muloqot va iqtisodiy

hamkorlikni chuqurlashtirish muhimligini ta’kidlab keladi. Uning Muvofiqlashtiruvchi kengash ta’sis etish, Sanoat injiniring xabini yaratish, Atom energetikasi bo’yicha Mintaqaviy kompetensiyalar markazini tuzish, “Markaziy Osiyo — Rossiya energetik sherikligi dasturi” markazini tashkil etish bo’yicha takliflari uzoq muddatli barqaror rivojlanishga qaratilgan aniq va puxta o’ylangan chora-tadbirlardir.

Prezidentimizning innovatsiyalar, ta’lim, inson kapitaliga qaratayotgan alohida e’tibori yuksak tahsinga sazovor. “Kelajak muhandislari” ilmiy-ta’lim konsorsiumi va yosh tadqiqotchilar uchun grant dasturini tashkil etish g’oyasi mintaqadagi yoshlar va ilm-fan uchun yangi ufglarni ochmoqda. Bular shunchaki tashabbuslar emas, balki Markaziy Osiyoning intellektual va texnologik salohiyatini shakllantiradigan kelajakka strategik sarmoyadir.

Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikni nafaqat iqtisodiy maqsadga muvofiq, balki ishonch, madaniy o’zaro tushunish va xavfsizlikni mustahkamlash yo’li sifatida ko’rib, pragmatizm va insonparvarlikning o’ziga xos sintezini namoyish qilayotganini alohida ta’kidlash muhim.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning integratsiya, innovatsiyalar va barqaror rivojlanishga qaratilgan izchil siyosatidan chin dildan hayratda ekanligimni bildirmoqchiman. Uning nutqi shunchaki siyosiy hujjat emas, balki Markaziy Osiyo va Rossiya o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning yangi davri uchun ilhomlantiruvchi manifest bo’lib, markazida odamlar, bilim va bunyodkorlik mujassam.

Hikmet EREN, Yevroosiyo iqtisodiy aloqalar jamg’armasi — “EkoAvrasya” rahbari (Turkiya):

— Bu uchrashuvlar Markaziy Osiyo bosqichma-bosqich siyosiy iroda, iqtisodiy tashabbus va o’zaro ishonch markaziga — mintaqaviy hamkorlikning yangi mantig’i shakllanayotgan makonga aylanib borayotganini yana bir bor namoyish etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo — Rossiya” ikkinchi sammitida strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy barqarorlikni birgalikda ta’minlashga qaratilgan keng ko’lamli tashabbuslarni ilgari surdi.



Sammitdagi nutqida Prezident rasmiy kelishuvlar tilida emas, balki aniq harakatlarda tilida gapirdi. Umumiy qarorlar ijrosini jadallashtirish va g’oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish uchun hukumat rahbarlari o’rinbosarlari darajasida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzishni taklif qildi. “Markaziy Osiyo — Rossiya agroekspres” to’g’ridan to’g’ri logistika yo’lagini ochish tashabbusi alohida e’tiborga molik. Bu nafaqat o’zaro savdoni oshirish, balki mintaqadagi fermer va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlarni ham ochish imkonini beradi.

Prezident Buxoroda ilm-fan, biznes va innovatsiyalar uchrashadigan noyob texnologik ko’pri bo’lgan Sanoat injiniring xabini yaratish g’oyasiga alohida e’tibor qaratdi. O’zbekiston yetakchisi, shuningdek, mamlakatda Atom energetikasi bo’yicha Mintaqaviy kompetensiyalar markazini, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari va Rossiya universitetlari hamda yosh tadqiqotchilar salohiyatini birlashtirgan “Kelajak muhandislari” konsorsiumini tashkil etishni taklif qildi.

Bu tashabbuslar rasmiy bayonotlardan ancha uzoq. Ular hamkorlikning jonli arxitekturasini yaratmoqda, bunda har bir element — transport, energetika, raqamli texnologiyalar yoki kibernetika — bir-birini to’ldiradi va mintqa kelajagi haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

O’zbekiston yetakchisi mintaqadagi jarayonlarga yangi sur’at kiritishga muvaffaq bo’ldi. Uning Nyu-Yorkdagi BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ilk bor taqdim etilgan “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi mintaqaviy hamkorlikka zamonaviy yondashuvning asosiga aylandi. Bu shunchaki tashqi siyosat g’oyasi emas, balki yaxshi qo’shniçilik, ochiqlik va barcha sheriklar manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan real strategiyadir.

Yaqinda Gabala shahrida bo’lib o’tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti ham

O’zbekistonning mintaqaviy rivojlanish kun tartibini shakllantirishdagi faol rolini tasdiqladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o’z nutqida mamlakatlarimiz o’rtasidagi iqtisodiy va transport aloqalarini mustahkamlash zarurligini ta’kidladi.

Bu pozitsiya, mening fikrimcha, Turkiyaning Yevroosiyo raqobat emas, balki o’zaro manfaatlar orqali barqaror rivojlanish haqidagi qarashlariga yaqin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi O’zbekistonning Hamdo’stlik ishlaridagi konstruktiv va faol ishtirokiga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Davlatimiz rahbarining ushbu majburiyat o’z ifodasini topgan siyosati umumiy vazifalarni hal etish uchun hamkorlikning yangi, innovatsion, o’zaro manfaatli shakllarini izlashga asoslangan. Bu Toshkentning MDH formatida shunchaki qatnashish emas, balki yangi g’oyalarni qo’shish, muloqotni jonlantirish va uni real tashabbuslar bilan singdirishga intilishidan dalolat beradi.

Ayniqsa, rasmiy Toshkent qo’shnilarni bir-biriga yaqinlashtirish — chegaraga muammolarini hal etish, to’siqlarni bartaraf etish, ishonchni tiklash bo’yicha aniq qadamlarni birinchi bo’lib qo’ygani alohida ta’kidlamoqchiman. Bu yangi, ya’ni mintqa davlatlari muammolarini emas, balki kelajak uchun imkoniyatlarni muhokama qila boshlagan muhitni yaratdi.



Tazin AXTAR, “Pakistan in the World” gazetasi muharriri (Pokiston):

— Markaziy Osiyodagi voqealarni kuzatib borayotgan ekspert sifatida O’zbekiston Prezidentining Dushanbe shahrida bo’lib o’tgan sammitlardagi ishtirokini rasmiy Toshkentning faol, muvozanatli va konstruktiv tashqi siyosatining yana bir tasdiq’i deb bilaman.

O’zbekiston co’nggii yillarda mintqa davlatlari o’rtasida ishonchni mustahkamlash, transport aloqalarini rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikni

Albatta, tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlari uchrashuvi tashkil etilishi mintaqaga bo’lgan umumiy xavfni aniqlash, unga qarshi samarali kurashish choralarni ishlab chiqishga, kelajakda birlashgan va o’zaro bog’langan tadbirlarni amalga oshirishga, maxsus xizmatlar o’rtasida operativ hamkorlikni kuchaytirishga, xavfsizlik tahdidlarining oldindan aniqlash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Eng muhimi, tashkilot faqat iqtisodiy manfaatlarini emas, balki xavfsizlik va barqarorlik masalalarini ham himoya qiladigan to’laqonli strategik sheriklik maydoniga aylanadi.

Prezidentimizning tashkilotni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda iqtisodiy sheriklik bo’yicha doimiy kengash tuzish tashabbusi a’zo davlatlar hamkorligining aniq dasturiy yo’nalishini belgilab beradi va ularning javobgarligini oshiradi hamda tashkilotning kelajakdagi maqsadli natijalarni aniq ko’rish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, mamlakatlardagi siyosiy liderlarning o’zgarishi ham hamkorlikning asosiy yo’nalishlariga ta’sir qilmasligiga, tashkilotning uzoq muddatli manfaatlarini ko’zlab ishlarni davom ettirishga zamin yaratadi. Qolaversa, aniq strategiya va dasturga ega tashkilotning xalqaro maydondagi o’rni ham mustahkamlanadi.

Iqtisodiy sheriklik bo’yicha doimiy kengash tuzilishi esa tashkilot a’zolari tomonidan tasdiqlangan iqtisodiy hujjat va kelishuvlarni baholash, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, savdo-iqtisodiy munosabatlardagi to’siq va muammolarni bartaraf etish, a’zo davlatlarning iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarini o’rganib, yangi qo’shma loyihalarni ro’yobga chiqarish imkoniyatini izlab topishga yordam beradi.

Bir so’z bilan aytganda, 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi “Nima qilish kerak?”, iqtisodiy sheriklik bo’yicha doimiy kengash “Qanday amalga oshirish kerak?” degan savollarga javob topadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida mintaqadagi o’rta yo’lakni “Xitoy — Qirg’iziston — O’zbekiston” temir yo’li hamda Transafg’on yo’lagi loyihalari bilan

bog’lashni qo’llab-quvvatlab, bojxona tartibotini raqamlashtirish va tariflarni optimallashtirish muhimligini ta’kidladi. Turkiy investitsiya jamg’armasi faoliyatini kengaytirish hamda xalqaro va milliy moliya institutlari bilan hamkorlik dasturini qabul qilishni tavsiya etdi. Sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyot bo’yicha “yo’l xaritasi”ni qabul qilish va Turkiy dunyo xalqaro ko’rgazmasini O’zbekistonda o’tkazish g’oyasini ilgari surdi.

Turkiy investitsiya jamg’armasi faoliyatini kengaytirish milliy darajada bajarilishi qiyin bo’lgan yirik hajmdagi loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlaydi. Ushbu jamg’arma ichki resurslardan samarali foydalanish va tashqi resurslarni jalb qilishning kuchli tizimini yaratishga yordam beradi. Qolaversa, xususiy investorlar sarmoyasidan samarali foydalanish, ichki investitsiya vositalari orqali tashqi moliya manbalariga bog’liqlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro va milliy moliya institutlari bilan hamkorlik dasturi qabul qilinishi esa xalqaro tajriba va vositalardan foydalanib, valyuta, kredit va bozor risklarini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Ilg’or standartlar asosida tashkilot a’zolarining xalqaro kapital bozorlarida manba topishini kengaytiradi.

Prezidentimizning Gabala sammitida ilgari surgan tashabbus va takliflari barcha sohalarni qamrab olgani va aniq amaliy natijalarga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega. Bu tashabbuslar kelajakda Turkiy davlatlar tashkilotining ko’p qirrali hamkorligini mustahkamlashga, o’zaro aloqalarini kengaytirishga, strategik, iqtisodiy va xavfsizlik bo’yicha sheriklikning yangi qirralariga zamin yaratadi.



“Markaziy Osiyo — Rossiya” sammitida xavfsizlik, transport, logistika, energetika va gumanitar hamkorlikka oid keng ko’lamli masalalar muhokama qilindi. Afg’oniston va Yaqin Sharqdagi vaziyat, global jarayonlarning mintaqaga bosimi ortib borishi bilan birga Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlaridan aniq, kelishilgan javob choralarini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, rasmiy Toshkentning an’anaviy tarzda tinchlik, pragmatizm va ochiqlikka qaratilgan pozitsiyasi barqarorlashtiruvchi rol o’ynaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy ishtiroki va siyosiy ko’magi bilan o’nlab yillar davomida muhokama bosqichida qolib ketgan “Xitoy — Qirg’iziston — O’zbekiston” temir yo’li loyihasi qayta foydalanilganini eslashning o’zi kifoya. Bugungi kunda loyiha amaliy amalga oshirish bosqichiga kirdi va bu O’zbekiston rahbarining diplomatik moslashuvchanligi va qat’iyati tufaylidir.

Yana bir yorqin misol, yaqinda Qirg’iziston va Qozog’iston hamkorligida amalga oshirilayotgan yirik energetika loyihasi bo’lgan “Qambarota-1” GESi qurilishining boshlanishidir. Suv va energetika masalalari bo’yicha kelishmovchiliklar tez-tez uchrab turadigan mintaqada bunday keng ko’lamli loyiha yo’lga qo’yilishining o’zi mamlakatlar o’rtasidagi ishonch va o’zaro tushunish kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bunda O’zbekistonning hisssasi, “yangi suv diplomatiyasi”ga yondashuvini yuqori baholash mumkin.

O’zbekiston Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida o’zaro manfaatlilik, suverenitetni hurmat qilish, natijaga e’tibor qaratishga asoslangan tashqi siyosat modelini namoyish etayotganini alohida ta’kidlash joiz. Bu, ayniqsa, dunyo toбора keskin qarama-qarshilik maydoniga aylanib borayotgan, mintqa davlatlari Sharq va G’arb, Shimol va Janub o’rtasidagi manfaatlar muvozanatini saqlashga intilayotgan bir davrda ayniqsa muhimdir.

Dushanbedagi joriy uchrashuvlar ham bundan mustasno bo’lmadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ishtiroki sammitga qo’shimcha sur’at bag’ishladi, amaliy hamkorlikka e’tiborni kuchaytirdi. Yakuniy kelishuvlar esa yangi geosiyosiy sharoitda MDH va Markaziy Osiyo davlatlarining sa’y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan.

Bugunning gapi



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



suv o'lgachig o'rnatish ko'zda tutilgan. Qolaversa, suv uzatish inshootlari ham uzluksiz modernizatsiya qilinaypti. Bu tarmoqlarda suv isrof bo'lishi oldini olishga zamin yaratadi.

Obihayot ta'minotini yaxshilash borasida Andijon viloyatida ham muhim chora-tadbirlar ko'riylapti. "Andijon suv ta'minoti" AJ direktori Dilshodbek Qo'ldoshovning aytishicha, amalga oshirilgan loyihalar hisobiga bugungi kunga kelib viloyat aholisining 91 foizi bu borada zamonaviy qulayliklarga ega bo'ldi. Joriy yilda ham yana 44 ta mahallada suv ta'minotini yaxshilash bo'yicha ishlanyapti. O'z navbatida, xonadonlarga yetkazib berilgan suvdan oqilona foydalanishga erishish masalasi

SUV BILAN IN'OM ETILGAN HAYOT

YURTIMIZDA AHOLINI MARKAZLASHGAN ICHIMLIK SUV BILAN TA'MINLASH DARAJASI 82,1 FOIZGA YETDI



Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Suv taraqqiyot va farovonlikning muhim asosidir. Ammo bugungi davrga kelib tirikligimizning muhim manbai bo'lgan ana shunday qimmatli ne'matning tabiiy zaxirasi kamayib boryapti. Boz ustiga, inson faoliyati tufayli katta-katta suv havzalari ifloslanmoqda.

Buning natijasida dunyo aholisining ikki milliarddan ortig'i toza ichimlik suvdan foydalanishdan bebahra qolmoqda. Ichishga yarqosiz suv iste'mol qilinishi natijasida kelib chiqayotgan xastaliklar tufayli ming-minglab inson hayotdan bevaqt ko'z yumayotir. Bunday muammolarni alohida hudud yoki bir mamlakat miqyosida hal etib bo'lmaydi. Chunki biz bugun globallashgan dunyoda yashayapmiz. Shu bois, hudud tanlamas va chegara bilmas ekologik muammolarni yechimini topishda butun insoniyatning o'zaro hamkorligi va hamjihatligi nihoyatda muhim.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida so'zlagan nutqida insoniyatning kelajak taraqqiyotiga daxldor ko'plab masalalar qatorida sayyoramizda ro'y berayotgan suv resurslari taqchilligi muammosiga jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir karra qaratgani ayni muddao bo'ldi. Zero, insoniyatning kelajak taraqqiyoti barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan ana shunday dolzarb vazifalar samarali hal etilishiga bog'liq.

Qolaversa, obihayot tan-qisligi muammosi mintaqamizga ham begona emas. Tahlillarga ko'ra, Amudaryo va Sirdaryoda suv oqimi kamayishi natijasida 2040-yilga borib, Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch keladi. Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri — Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz. Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda suvni tejash va obihayot ifloslanishining oldini olishga alohida e'tibor qaratilaypti.

Xususan, suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlari betonlashtirilaypti. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat bazasi yaratildi, sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalar joriy etildi. Bunday chora-tadbirlar natijasida o'tgan yil 8 milliard metr kub suv tejaldi.

Davlatimiz rahbari BMTning nufuzli anjumanida mamlakatimiz va mintaqamizda barqaror rivojlanishga yo'g'rilgan ana shunday xayrli ishlarni izchil davom ettirish va o'zaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirish tashabbusini ilgari surdi.

Bu bejiz emas. Tahlilchilar fikricha, 2040-yillarga borib mintaq aholisi 86 millionga ko'payishi kutilmoqda va buning ortidan suv taqchilligi yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda suv resurslaridan samarali foydalanish dolzarb vazifadir.

Poytaxtimizda shu yil 6-8-oktabr kunlari bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari" mavzusidagi xalqaro konferensiya bu borada o'zaro fikr va tajriba almashish, mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv amaliyotini keng joriy etish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim hamkorlik maydoni bo'lib xizmat qildi.

Tadbirda suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlari samaradorligini oshirish, aktivlarni boshqarish, raqamli yechimlarni joriy etish, institutsional transformatsiya hamda malakali kadrlar tayyorlash masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari, xususiy sektorni jalb etish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha alohida sessiyalar tashkil etildi.

Konferensiya davomida ishtirokchilar Toshkent viloyatidagi Qodiriya va Chirchiq oqova suv tozalash inshootlari hamda Yangiyo'l shahridagi "Mesal water technologies" qo'shma korxonasiga tashrif buyurib, mavjud loyihalar va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishdilar. Shuningdek, "AquaTherm-Tashkent 2025" xalqaro ko'rgazmasi doirasida suv sohasidagi eng so'nggi ishlanmalar namoyish etildi.

Yuksak e'tibor va katta mablag' samarasi

Bundan 7-8 yil muqaddam mamlakatimizda ichimlik suv ta'minoti atigi 60 foiz atrofida edi. Aholining qolgan qismi muqobil manbalardan foydalanilardi. Qishloqlarda esa ichimlik suv olish katta qiyinchiliklarga sabab bo'lardi. Shu bilan birga, mamlakat bo'yicha mavjud suv tarmoqlarining qariyb 60 foizi eskirgan, inshootlarning yarmidan ortig'i o'z quvvatini yo'qotgan edi.

Shunday vaziyatda aholini ichimlik suv bilan ta'minlash masalasiga milliy taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, keng qamrovli chora-tadbirlar ko'rildi. Zero, ichimlik suv yetarli bo'lishi aholining kundalik hayoti, sog'lig'i va turmush darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Suv insonning toza havodan keyin ikkinchi muhim ehtiyojdir. Inson ovqatsiz bir necha kun hayot kechirishi mumkin, ammo suvsiz uzoq yashay olmaydi. Shu bois, har kuni me'yorida toza suv ichish sog'liq va uzoq umr garovidir. Buni bir qator faktlar ham isbotlaydi. Masalan, odam tanasidagi suv miqdori atigi ikki foiz qisqarsa, aqliy imkoniyatlarimiz 20 foiz pasayadi. Shifokorlarning aytishicha, suv qon bosimini tushirishda yordam beradi.

Shu asosda so'nggi 8-yil ichida sohaga 27,5 trillion so'm yo'naltirildi. Ushbu mablag' evaziga 3627 ta inshoot, 40,6 ming kilometr tarmoq qurilib, aholi xizmatiga topshirildi. Natija o'zini ko'p kuttirmadi. Yuz minglab aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvga ulanib, viloyat bo'yicha ta'minot darajasi 47 foizdan 68 foizgacha ko'tarildi.

— Toza suv yetishmasligi yaqin-yaqin gacha bizni ham juda qiyin, uzoqdan suv tashib keltirardik, — deydi Buxoro viloyati Qorako'l tumani Mustaqillik mahallasida yashovchi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



yondashuvlarni joriy etish, investitsiya jalb qilish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish borasidagi ishlar izchil davom etyapti. "O'zsuvta'minot" AJ tomonidan 28 ta xalqaro loyiha amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Fransiyaning AFD agentligi, KOICA, shuningdek, Shveysariya hukumati kabilar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Jahon banki ishtirokida 1 milliard 200 million AQSH dollari miqdori mablag' jalb qilinib, suv ta'minoti va oqova tizimini modernizatsiyalash, qishloq hududlarni markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash, boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish bo'yicha 10 dan ortiq loyiha bajarilmoqda. Hududlardagi ishlar ham katta samara bermoqda.

Masalan, Surxondaryo viloyatida To'palang suv ombori asosida qurilgan 147 kilometr tarmoq orqali Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlarining 141 ming aholisi markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlandi. Jizzax viloyatida Zarafshon daryosidan olinayotgan suv asosida yangi tarmoqlar tortilib, Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l tumanlari hamda Jizzax shahrining 286 ming aholisi toza ichimlik suvdan barqaror foydalanish imkoniga ega bo'ldi. Bu loyiha natijasida viloyatdagi suv ta'minoti qamrovi 52 foizdan 85 foizgacha oshdi.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida "Oqsuv — Dehqonobod" loyihasi doirasida ilk bor 76 ming aholi markazlashgan ichimlik suvga ulandi va natijada ta'minot darajasi 1,8 foizdan 51,7 foizgacha ko'tarildi. Toshkent viloyatida Qodiriya suv inshooti rekonstruksiyasi orqali 8 ming kishi ilk bor ichimlik suvga ulandi, qo'shimcha 265 ming aholining ta'minoti sezilarli yaxshilandi.

Buxoro viloyatida Olot va Qorako'l tumanlarida amalga oshirilgan loyihalar natijasida 275 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvga ulanib, viloyat bo'yicha ta'minot darajasi 47 foizdan 68 foizgacha ko'tarildi.

— Toza suv yetishmasligi yaqin-yaqin gacha bizni ham juda qiyin, uzoqdan suv tashib keltirardik, — deydi Buxoro viloyati Qorako'l tumani Mustaqillik mahallasida yashovchi

Orzigul Abdiqudirova. — O'sha paytlarda bir kun qishloqqa toza suv tarmog'i tortiladi, desa, aslo ishonmasdik. Ammo bugun bu haqiqatga aylandi. Chekka qishlog'imizda ham xuddi katta shaharlardagi singari xonadonimizdagi jo'mrakdan doimo toza suv oqib turadi. Bu qanchalik katta ne'mat ekanini biz, nuroniylar yaxshi anglaymiz. Chunki toza suv insonga hayot baxsh etish demakdir. Ana shunday bebaho ne'matdan beminnat bahramand bo'layotganimiz tengsiz baxt. Shu bois, farzandlar va nabiralarga oltinga teng bu ne'matning qadriga yetishni doimo utqirib turamiz.

Ayni paytda aholining turmush sifati va salomatligida g'oyat muhim bo'lgan bu yo'nalishda ishlar izchil davom etyapti. Ichimlik suv ta'minotini yaxshilash bo'yicha loyihalar qamrovi kengaymoqda. Bunday loyihalar bilan birga sohaga innovatsion yondashuvlar ham joriy etilmoqda. Jumladan, GIS xaritalar tizimi yordamida 25 ming kilometrdan ortiq tarmoq raqamli nazoratga olindi. SCADA avtomatlashtirilgan tizimi orqali 100 dan ortiq nasos stansiyasida jarayonlar real vaqtda kuzatilib, samaradorlik oshirilmoqda. UzWater billing platformasi 3,5 million abonentning hisob-kitoblarini onlayn boshqarish imkonini bermoqda. Shuningdek, maxsus laboratoriya tahlil tizimi orqali ichimlik suvning sifat ko'rsatkichlari muntazam monitoring qilinmoqda.

— Yurtimizda suv ta'minoti va oqova xizmatlari sohasidagi keng qamrovli islohotlar, zamonaviy yondashuvlar xalqimizning hayot sifati yaxshilash, turmush farovonligini oshirishda samara bermoqda, — deydi "O'zsuvta'minot" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi Ahmad Suvonqulov. — Bu borada xalqaro moliya institutlari bilan keng qamrovli hamkorlik va hududlardagi yirik loyihalar tufayli bugun millionlab odamlarning hayot sifati sezilarli darajada yaxshilannmoqda.

Sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'ning 16 trillion so'mi, ya'ni qariyb 60 foizi so'nggi uch yilga to'g'ri keladi. Buning hisobiga 3600 dan ortiq inshoot va 40 ming kilometrdan ziyod suv tarmog'i barpo etildi. Natijada 789 ta mahallada yashovchi 7,7 million fuqaro ilk bor sifatlilik ichimlik suv bilan ta'minlandi. Yana 11,5 million aholining suv ta'minoti yaxshilandi, 1,1 million fuqaro esa oqova suv tizimiga ulanib, hayot sharoitlari sezilarli darajada ortdi.

Ayni paytda bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etyapti. Xususan, 2025-yilning o'zida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda umumiy qiymati 2 milliard 180 million dollarlik 21 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Buning natijasida 4,1 million aholining ichimlik suv, 2,1 million aholining oqova suv xizmatlari yaxshilanadi.

Sohada keng ko'lamli ishlar natijasida bugungi kunda aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlaning darajasi 82,1 foizga, oqova xizmatlari esa 20,5 foizga yetdi. Bu borada oldinda hali ulkan vazifalar turibdi. 2030-yilga qadar kamida 40 trillion so'm investitsiya jalb etib, ichimlik suv qamrovini 90 foizga, oqova suv xizmatlari darajasini esa 32,6 foizga yetkazish ko'zlangan. Bu yuksak maqsadlarga erishish uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilib, xalqimizning farovon hayoti yo'lida izchil chora-tadbirlar davom ettiriladi.

Suv tekin emas

Suv insonning toza havodan keyin ikkinchi muhim ehtiyojdir. Inson ovqatsiz bir necha kun hayot kechirishi mumkin, ammo suvsiz uzoq yashay olmaydi. Shu bois, har kuni me'yorida toza suv ichish sog'liq va uzoq umr garovidir. Buni bir qator faktlar ham isbotlaydi. Masalan, odam tanasidagi suv miqdori atigi ikki foiz qisqarsa, aqliy imkoniyatlarimiz 20 foiz pasayadi. Shifokorlarning aytishicha, suv qon bosimini tushirishda yordam beradi.

Depressiyadan xalos bo'lish, asabni tinchlantirish uchun ham toza suv muhim vositadir. Kuniga besh stakanidan ortiq toza suv ichish yurak xuruji xavfini kamaytiradi. Ko'plab ilmiy izlanishlar suv kayfiyatiga ta'sir qilishi, g'azab va hayajonni kamaytirishi mumkinligini isbotlagan. Suv tanadagi ozuqa moddalarning to'g'ri so'rilishi uchun juda zarur. Shunday ekan, toza ichimlik suvni me'yorida iste'mol qilish sog'liq uchun koni foyda. Afsuski, ana shunday bebaho ne'matning tabiatdagi zaxirasi cheklangan. Yer yuzining salmoqli qismi suv bilan qoplanganiga qaramay, uning ichishga yaraydigan miqdori juda oz.

Shu bois, suvning har qatrasini tejash asosiy vazifamizdir. Buni teran anglagan xalqimiz obihayotni azal-azaldan muqaddas hisoblab, uni asrab-avaylagan. "Suvdek serob bo'ling", "Suvdek aziz bo'ling" kabi egzu niyatlar shu ulug' qadriyat natijasida paydo bo'lgan. Afsuski, insoniyat ana shunday bebaho ne'mat qadrlari har doim ham anglab yetmaydi. Olimlar



va ekspertlar dunyo miqyosida suvni behuda isrof qilish va suv manbalarini ifloslantirish ko'rsatkichlari yuqorilgicha qolayotgani haqida bot-bot bong urayotgani fikrimiz isbotidir. Holbuki, oqib turgan vodoprovod jo'mragini bekkitish, katta quvurlardagi nosozliklarni bartaraf etishda jonbozlik ko'rsatish, kundalik faoliyatimizda ichimlik suv isrof bo'lishining oldini olish orqali bu xayrli ishga har birimiz o'z hissamini qo'shishimiz mumkin.

Mamlakatimiz suv ta'minoti tizimidagi modernizatsiya ishlari jarayonida aholi orasida tejamkorlik madaniyatini oshirishga ham e'tibor qaratilayotgani ana shunday muammolarga yechim topishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, obihayotdan tejamkor foydalanishning samarasi katta. Buning uchun xonadonlarga va barcha korxona-tashkilotlarga suv sarfini hisoblaydigan zamonaviy vositalar o'rnatilayotgani o'z samarasini bermoqda.

— So'nggi yillarda viloyatimizda aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash borasida keng qamrovli loyihalar amalga oshirilyapti, — deydi "Jizzax suv ta'minoti" AJ direktori o'rinbosari Dilshod Ziyoyev. — Buning natijasida qisqa davrda viloyatimiz ahlining suv ta'minoti yaxshilandi. Ayniqsa, chekka hududlar, olis mintaqalarda yashaydigan qishloqlar aholisiga toza suv yetkazib berishga erishilgani katta yutuq'imiz bo'ldi. Endilikda obihayotning bir qatrisi ham isrof bo'lmasligini ta'minlash asosiy vazifamizga aylannmoqda. Zero, katta mablag' va tinimsiz mehnat evaziga xonadonlarga yetib borayotgan toza suvning har bir tomchisi oltinga teng bebaho ne'matdir.

Shu bois, suvni tejash va behuda sarf bo'lishining oldini olish maqsadida kelgusi yilda aholi xonadonlariga 5000 ta zamonaviy

alohida e'tiborga olingan. Shu maqsadda xonadonlarga suv sarfini o'lchaydigan hisoblagichlar o'rnatilaypti. Joriy yilda 125 ming dona shunday qurilma o'rnatish orqali suv iste'molchilarining salmoqli qismini qamrab olish ko'zda tutilaypti. Yuridik iste'molchilar esa elektron hisoblagichlardan foydalanmoqda.

“

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida so'zlagan nutqida mamlakatimizda suvni tejash bo'yicha jahon forumini o'tkazish tashabbusini ilgari surgani ushbu vazifalarni ro'yobga chiqarishda ayni muddao bo'ldi. Mazkur anjuman yakunlari bo'yicha suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash mo'ljallannmoqda.

Bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida "yo'l xaritasi"ni qabul qilish ko'zda tutilaypti. Bunday egzu tashabbuslarning ro'yobga chiqishi nafaqat mamlakatimiz va mintaqamiz, balki butun dunyoda barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ezigulikka yo'g'rilgan ushbu g'oya va tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan

qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ayni paytda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash borasidagi ishlar izchil davom etyapti.

Xususan, joriy yilda davlat dasturi doirasida 1 ming kilometr kanalni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishish yo'lida ishlanyapti. Nasos stansiyalarini modernizatsiyalash, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish choralari ko'rilayotir. Sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilmoqda.

Shuningdek, 1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog'i, 77 ta ichimlik va oqova suv inshooti qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi, ichimlik suv tizimida ma'nan eskirgan 746 ta nasos uskunalar energiya tejamlariga almashirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagich o'rnatilishi, barcha ichimlik suv ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi bo'yicha amaliy ishlar davom etyapti.

Daryolar, ko'llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishini ta'minlash ham e'tiborda. Albatta, bu sa'y-harakatlarning barchasi tabiiy boyliklarni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish va ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamoat xavfsizligi:

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini, shuningdek, fuqarolarning osuda hayot kechirishini ta’minlash borasida butunlay yangicha yo’nalish shakllandi. Zero, jinoyatning oqibatlari bilan kurashish emas, balki jinoyatchilikning asl omillarini aniqlash va o’z vaqtida bartaraf etish orqali barvaqt oldini olish davr talabidir. Shuning uchun ham profilaktika ishlarini kuchaytirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo’luvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va tashkiliy omillarni ilmiy tahlil qilish hamda bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ko’rish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda.



Baxtiyor BERTDILYEV,
Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig’i, yuridik fanlar bo’yicha
falsafa doktori

Jinoyatchilikning oldini olish va unga sabab bo’layotgan omillarni barvaqt aniqlash hamda kelajakda paydo bo’lishi mumkin bo’lgan yangi turdagi jinoyatlarni prognoz qilish, ularga qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqish kriminologiya sohasining asosiy vazifasidir.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish maqsadida Prezidentimizning 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoniga binoan O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilib, ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Institut faoliyatini to’laqonli yo’lga qo’yish maqsadida mazkur farmon asosida Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining tegishli me’voriy-huquqiy hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-yanvardagi “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga binoan kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etishning maqsadli yo’nalishlari belgilandi. Bugunga qadar Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan qator ishlar bajarildi. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida “g’oyadan amaliyotgacha” degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni qo’llash tizimi yaratildi va tegishli loyihalar ustida ishlanmoqda. Jinoyatchilik, xususan, latent (yashirin) jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli tahlil va prognoz qilish, salbiy tendensiyalarni aniqlash va bartaraf etish bo’yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jinoyatning tub omillarini kompleks ilmiy diagnost asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanib, kriminologik faoliyatga sun’iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bo’yicha zarur choralar ko’rildi.

Jinoyatchilikka
barham berish

Institut tomonidan jinoyat omillarini ilmiy tashxislash, jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish natijalari asosida har chorakda “Jinoyatchilik tendensiyalari

Shuningdek, yuridik, sotsiologik, psixologik, pedagogik, tibbiy, atrof-muhit, raqamli kriminologiya kabi zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida ta’lim muassasalarida kriminologiya fanini o’qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirish tizimi va dasturi ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manzilli hamkorlik faollashtirildi. Qo’shma kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirish yo’lga qo’yildi. O’zbekiston kriminologiyasining jahon reytingidan munosib o’rin egallashini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar davom ettirilmoqda.

Bugun institutda jinoyatchilik tendensiyalari, omillari, mahalladagi jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilish markazlari faoliyat yuritmoqda. Muassasada boy amaliy tajriba hamda ilmiy salohiyatga ega kadrlar jamlangan. Xodimlarning 6 foizi fan doktorlari, 49 foizini falsafa doktorlari, 15 foizi professor-dotsentlar, 30 foizi ilmiy izlanuvchilardan iborat.

Institut huzurida yuridik fanlar bo’yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash, Xalqaro ekspertlar kengashi hamda Kriminologiya kengashi tashkil etilgan. 2025-yil yanvardan institutda kriminologiya sohasi bo’yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida malakali ilmiy kadrlar tayyorlash hamda talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga taqdim etish faoliyati yo’lga qo’yildi. Bugunga qadar 55 talabgor tegishli ixtisosliklar bo’yicha mustaqil izlanuvchilikka qabul qilindi.

va omillari davlat hisobotlari” tayyorlanib, hukumat hamda huquq-tartibot organlariga taqdim etilmoqda.

Jinoyatchilikka ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillar kompleks o’rganilib, o’zaro bog’liqligi ilmiy asosda tahlil qilinmoqda. Shu bilan birga, hududlarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi baholalanib, tahlil va prognoz natijalariga asoslangan holda qonunchilik va huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirish yo’nalishlari ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnost qilish orqali ulami bartaraf etishning institutsional va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tayyorlanmoqda.



Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar asosida ilk bor jinoyatchilik turlari va rivojlanish tendensiyalariga oid o’sish yoki pasayish ehtimoli mavjud hududlar bo’yicha ilmiy asoslangan prognozlari ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi globallashtiruv sharoitida milliy xavfsizlikka ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan omillar qatorida xorijiy davlatlardan kirib kelishi ehtimoli mavjud jinoyat turlarini ilmiy asosda o’rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada institut jamoasi tomonidan transmilliy jinoyatchilik, jumladan, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, kibernetika jinoyatchilik va narkotrafik kabi xavfli tendensiyalar chuqur tahlil etilmoqda.

Mazkur tahlillar, o’z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samarali yo’naltirish, qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash uchun ilmiy asos bo’lib xizmat qilmoqda.

Jinoyat turlari va alohida toifadagi shaxslar jinoyatchiligini tadqiq etish bo’yicha 38 ta ilmiy tadqiqot loyihasi ustida ishlanmoqda. Jumladan, Jazoni ijro etish departamenti buyurtmasi asosida “Manzil koloniyalarda erkin harakatlanadigan va atrofi ochiq joylarda foydali mehnatga jalb etilgan mahkumlarni masofaviy nazorat qilish tizimi” loyihasi, Navoiy viloyati ichki ishlar boshqarmasi buyurtmasi asosida “Navoiy viloyatida sodir etilayotgan qasddan badanga og’ir shikast yetkazish jinoyati va Navoiy viloyati jinoyatchiligini tadqiq qilish” nomli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi buyurtmasi asosida “Korruptsiya sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish” nomli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi va boshqalar shular jumlasidan.

O’tgan qisqa muddatda mamlakatimizdagi 16 ta ilmiy va ta’lim tashkiloti bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish bo’yicha o’zaro anglashuv

memorandumi imzolandi. Ushbu tashkilotlar bilan kelgusida o’zaro axborot va tajriba almashiladi. Birgalikda ilmiy-amaliy tadbirlar o’tkaziladi. Innovatsion ishlanmalar ustida hamkorlikda ishlanadi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 18-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qaroriga binoan institut ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasida ilmiy tadqiqot natijalari asosida texnika vositalarini va qonunchilikda taqqlanmagan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishga ruxsat berildi. Ayni paytda laboratoriyada zamonaviy huquqni muhofaza qilish va xavfsizlik tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqib, elektron braslet, taktik jilet, yonkamera, elektroshoker, “aqlli ko’zoynak” qurilmasi, uchuvchisiz uchadigan



apparat hamda boshqa innovatsion texnik vositalarni ishlab chiqish va samaradorligini aniqlash bo’yicha amaliy sinovlar o’tkazilmoqda.

Qisqasi, jinoyatchilik oqibatlari batamom bartaraf etishning asosiy sharti — uning mohiyatini chuqur o’rganish uchun ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishdir. Shunday ekan, jinoyatchilikni ilmiy asosda o’rganmay hamda muntazam tadqiqotlar o’tkazmay turib, uni tubdan bartaraf etish yoki kamaytirish mumkin emas.

Ilmiy xulosa —
tavsiya — natija

Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori ham mahalla jinoyatchiligini ilmiy asosda o’rganish maqsadida qabul qilindi. Respublikaning kriminogen vaziyati og’ir hududlarda o’rganishlar olib borish, sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablarini aniqlash va ularni tegishli idoralar bilan hamkorlikda joyida bartaraf etish choralari ko’rishni nazarda tutadi. Mazkur qaror bilan Kriminologiya tadqiqot institutiga Samarqand viloyatining 16 ta, Toshkent shahri 2 ta, Toshkent viloyatining 7 ta shahar va tumanidagi mahallalar birlashtirilgan, ularda ilmiy yondashuv asosida o’rganish o’tkazish bo’yicha vazifalar belgilandi.

Topshiriqlar ijrosi doirasida institutning malakali ilmiy va amaliy tajribaga ega xodimlaridan iborat ischi guruhlar shakllantirilib, Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi “qizil” toifaga kiritilgan 222 ta mahalla birlashtirildi.

O’rganishlar davomida aniqlangan barcha muammo va kamchiliklar har bir mahalla yettilligi” hamda faol aholi vakillari ishtirokida atroficha muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida mazkur mahallalarda xavfsiz muhit yaratish uchun aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Aniqlangan muammolarni hal qilish borasida davlat va jamoat institutlarining hamkorligini mustahkamlash, profilaktika ishlarini tizimli yo’lga qo’yish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda ayollar, yoshlar va ishsizlar orasida jinoyat sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida tadqimnomalar tayyorlanib, hududiy ichki ishlar organlari va mahalliy hokimliklarga kiritildi.

Institutga birlashtirilgan hududlar bo’yicha o’rganilgan 1072 ta mahallaning kriminogen

vaziyatiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan 720 ta jinoyat o’chog’i aniqlandi hamda ulami bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, hududiy “yo’l xaritalari”ga kiritish uchun taqdim etildi.

Jinoyat omillarini aniqlash va bartaraf etish choralari bo’yicha hududiy metodikalar ishlab chiqilib, amaliyotda foydalanish uchun joylarga yuborildi. Keng qamrovli o’rganish va ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida “qizil” toifadagi 222 ta mahallaning 83 tasi “yashil”, 106 tasi “sariq” toifaga o’tkazildi.

Institut tomonidan jinoyatchilikning oldini olish bo’yicha ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan takliflar amaliyotga tatbiq etilib, mamlakatdagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatchilikning oldini olishga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan, 2025-yilning 8 oyida 100 ming kishi soniga nisbatan sodir etilgan, oldi olinishi mumkin bo’lgan jinoyatlar o’tgan yilning shu davriga nisbatan 10 foiz kamayishiga erishildi. Eng muhimi, mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlar 21,5 foiz kamayib, 5206 ta mahallada umuman jinoyat sodir etilishiga yo’l qo’yilmadi. Hududlarda esa 100 ming kishiga nisbatan oldi olinishi mumkin bo’lgan jinoyatlar Surxondaryo 22 foiz, Buxoro 17 foiz, Qashqadaryoda 12,3 foiz, Toshkent viloyatida 11 foiz kamaygan.

Londondagi Iqtisodiyot va tinchlik instituti e’lon qilgan “Safety Perceptions Index” — Xavfsizlikni baholash indeksi bo’yicha 2021-2024-yillarda O’zbekiston o’z tarixidagi eng yaxshi natijani, ya’ni 146 ta mamlakat orasida 29-o’rinni qayd etib, xavfsiz davlat deb e’tirof etildi.

Butunjahon odil sudlov loyihasi (AQSH) tashkiloti tomonidan har yili o’tkaziladigan Huquq ustuvorligi indeksining tartib va xavfsizlik indikatorlari bo’yicha O’zbekiston 2024-yilda 142 davlat orasida 17-o’rinni egalladi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirish maqsadida 9-11-sinf o’quvchilari uchun “Jinoyatsiz hayot — ma’rifatli avlod ko’lida” hamda “Ijtimoiy profilaktika faoliyatini tashkil etish asoslari” nomli yangi avlod o’quv-metodik qo’llanmalari tayyorlandi.

Yangi O’zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi islohotlar ilmiy asosga tayanilgan holda yangi bosqichga ko’tarildi. Eng muhimi, bu yo’nalishdagi izchil harakatlar har bir fuqaroning xavfsiz hayot va tinch kelajakka ishonchini yanada mustahkamlamoqda.



Mahalla o’zgarsa — jamiyat o’zgaradi

Keyingi yillarda mahalla tizimining jamiyatdagi nufuzi sezilarli darajada oshdi. Bu, albatta, yurtimizda ushbu tizimni davr talabiga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasidir. Xususan, 2023-yil 21-dekabrda Prezidentimizning “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo’g’in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan “Obod mahalla” — “Obod ko’cha” — “Obod xonadon” mezonlari joriy etildi.



HAMJIHATLIK VA MEHNAT SAMARASI



Bu tamoyilni joriy etishda davlat tomonidan aholining faol ishtiroki va mas’uliyatini oshirish choralari ko’rish vazifasi qo’yilgandi. Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa’y-harakatlarini

birlashtirish nazarda tutilgan. Bu mahallalardagi muammolarni o’z vaqtida samarali hal etishda muhim omil hisoblanadi. Qolaversa, mahalla mas’ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko’nikmalari

shakllanishiga ko’maklashish kabi vazifalar ham belgilab berilgan edi.

O’tgan qisqa vaqtda ushbu o’zgarishlar o’z natijasini ko’rsata boshladi. Bunday o’zgarishlarni Surxondaryo viloyati Sherobod tumani G’o’rin-Gilambob mahallasidagi ishlar misolida ham ko’rish mumkin. Mahalladagi 1112 ta xonadonda 1517 ta oila yashaydi. Aholi soni esa 6500 nafarga yaqin.

— Hudud infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan dastur va loyihalar natijasida mahallamiz kun sayin chiroy ochib bormoqda. Masalan, 2021-yilda boshlangan “Tashabbusli budjet”da shu kungacha 3 marta g’olib bo’ldik, — deydi “G’o’rin-Gilambob” mahalla fuqarolar yig’ini raisi Olimjon Chorshanbiyev. — Natijada 4 milliard so’m dan ortiq mablag’ mahallamiz infratuzilmasini yaxshilashga sarf etildi. Jumladan, 10 kilometrdan ortiq ichki yo’lga asfalt to’shaladi hamda 6,5 kilometrga ichimlik suv quvuri tortildi.

Mutasaddilarning aytishicha, Islom taraqqiyot banki dasturi doirasida 2025-2028-yillar davomida hududga 35 milliard so’m ajratish rejalashtirilgan. Shundan

mahalladagi maktab binosini qurish uchun 17 milliard 100 million so’m, ichki ko’chalarni asfalt qilish, yo’laklarni yoritishga 9 milliard 310 million so’m, piyodalar yo’lagi qurishga esa 696 million so’m, transformatorlar, beton ustunlar va elektr tarmoqlari tortish uchun 1 milliard 290 million so’m ajratilishi ko’zda tutilgan.

Mahallaning asosiy drayveri dehqonchilik, chorvachilik va bog’dorchilik. Ilgari aholining katta qismi xorijga ish qidirib ketardi. Hozir aholi shu daromadni uydun uzooqqa ketmay ham topish mumkinligini anglab yetdi. Migratsiyadan qaytgan fuqarolar va ularning oila a’zolari bilan mulqot qilinib, aniqlangan masalalarni hal etishga ko’maklashilmoqda.

“Yashil” toifada turishi uchun aholi bandligini ta’minlash va ishsizlikni tugatish lozim. G’o’rin-Gilambob mahallasida haqiqiy ma’noda tadbirkorlar maktabi yaxshi rivojlangan. Ko’pchilik uni tumandagi tadbirkorlar mahallasi, deya ataydi.

— Bizda ishsizlar deyarli yo’q. Chunki imkoniyatlardan samarali foydalanishga urinyapmiz, — deydi hokim yordamchisi

Eshbo’ri Xudoyberdiyev. — Jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi qator dasturlar asosida ishlayapmiz. Masalan, o’tgan 2024-yilda “Har bir oila — tadbirkor” dasturi asosida 134 fuqaroga 3 milliard 381 million so’m kredit ajratildi. 2025-yilning hozirgi kuniga qadar 62 fuqaro 1 milliard 152 million so’m kredit oldi.

Ayollar bandligini ta’minlash, jamiyatda o’z o’rnini topishga ko’maklashishga ham jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu borada xotin-qizlar faoli Lola Hakimova samarali ishlab, mahallasi tumanda namunali hududga aylanishiga munosib hissa qo’shib kelmoqda.

— O’tgan 2024-yilda mahallamizdagi 6 ayolga tikuv mashinasi, 6 nafariga imtiyozli kredit, 8 nafariga subsidiya asosida non pechi berildi. Yana 48 ayol kasb-hunarga o’qitildi. Bundan tashqari, 65 ayolga bir martalik moddiy yordam berilgan. 2025-yilda esa 46 xotin-qizga shunday ko’mak ko’rsatildi. Ayollardan 4 nafariga imtiyozli kredit ajratildi va 20 nafari isisqxonachilik bo’yicha o’qitildi, — deydi xotin-qizlar faoli Lola Hakimova.

Mahallalardagi ijtimoiy xodimlar nogironligi bor, yordamga muhtoj, kam ta’minlangan oilalarning yaqin ko’makchisiga aylandi. Ayni paytda ular 12 toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun yuzdan ortiq xizmat turlarini ko’rsatmoqda. Bu boradagi ishlar G’o’rin-Gilambob mahallasida ham samarali yo’lga qo’yilgan. Surxondaryo viloyatida keys-menejment asosida o’tgan yil 9 mingga yaqin ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaga keys ochilib, baholash ishlari olib borildi. Jumladan, Sherobodning mazkur mahallasida ham.

— 2024-yilda “Saxovat va ko’mak” jamg’armasidan nogironligi bo’lgan va kambag’al oila ro’yxatida turgan hamda og’ir xastalikka chalingan fuqarolarning 11 nafariga 23,4 million so’mlik protez-ortopediya moslamalari, reabilitatsiya qilishning texnik vositalari va bir martalik moddiy yordam ajratildi. 2025-yilning hozirgi kuniga qadar esa 8 fuqaroga 6,3 million so’mlik shu kabi yordamlar ko’rsatildi, — deydi ijtimoiy xodim Sanjar Yo’ldoshev.

Mahallada 2024-yilda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 2 qizga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berilib, bandligi ta’minlandi.

Bundan tashqari, 18 yoshga imtiyozli kredit ajratilgan. Shuningdek, 11 yoshga dehqonchilik qilishi uchun 30-yilga 1 gektardan yer ajratildi. “Besh tashabbus olimpiadasi” platformasidan 1845 yosh ro’yxatdan o’tkazilgan. Tanlovning respublika bosqichida shahsha ko’nalishida 16-21 yosh toifasida mahalla yoshlaridan Ulg’uzi Ko’charova faxrli 1-o’rinni egallagan. Joriy yilda “Yoshlar daftari”dagi 30 ga yaqin yigit-qizning muammosi hal etildi. Jumladan, 27 yoshga imtiyozli kredit ajratilgan.

G’o’rin-Gilambob mahallasida ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, aholi turmush farovonligini oshirish va yoshlar tarbiyasi borasida e’tiborga molik ishlar qilinmoqda. Fuqarolarning jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik hissi, bunyodkorlik borasidagi faolligi ortmoqda.

— Yoshlar tarbiyasi, ma’naviyatini yuksaltirishda “oila — mahalla — ta’lim muassasasi” hamkorligi qo’l kelmoqda. Hamkorlik asosida o’quvchi yoshlarning bo’sh vaqtini to’g’ri tashkil etish, ta’lim muassasalarida davomatni yaxshilash borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, ularning yot oqim va g’oyalari ta’siriga tushib qolishining oldi olinmoqda, — deydi yoshlar yetakchisi Abdulla Chorshanbiyev, — Xususan, tuman mahallalarida oshirilgan “Orasta qizlar davrasi” to’garaklaridagi mashg’ulotlar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ma’naviyatini, huquqiy, tibbiy, sog’lom turmush tarzi borasidagi bilim va tushunchalarini yuksaltirishga yordam bermoqda.

Mahallada 2024-yilda 4 ta jinoyat sodir etilgan bo’lsa, 2025-yilning o’tgan davr mobaynida birorta ham shunday hodisa bo’lmadi. Shu jihatdan mahalla “yashil” toifaga kiradi. Bu boradagi yaxshi natijalarda esa profilaktika katta inspektori tarbiyasi Asomiddin Almarkonovning munosib hisssasi bor. Umuman, mahallalar tinchligi, obodligi, aholi xotirjamligi joylarda amalga oshirilayotgan ezzu ishlar natijasiga bog’liq. Yurtidoshlarimiz tashvishini o’zini deb biladigan “mahalla yettilligi” esa xalqning vijdoni demakdir.

Sarvar TO’RAYEV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

BOSHQARUVDA TEZKORLIK, XIZMATDA SHAFFOFLIK

RAQAMLASHTIRISHNING ASOSIY JIHATLARI

Jumladan, “Raqamli hukumat” dasturi doirasida qirqdan ortiq loyiha amalga oshirilishi, elektron davlat xizmatlarining ulushi yetmish foizga chiqarilishi, mahallalarda o‘nlab yangi xizmatlar joriy qilinishi — bularning barchasi inson hayotiga bevosita daxldor. Oddiy fuqaro endi qaysi idoraning eshigini taqillatishni o‘ylab bosh qotirmaydi: ariza topshirish ham, to‘lov qilish ham, zarur ma‘lumotni olish ham bir tugma masofasida hal bo‘ladigan jarayonga aylanadi.

Qurilishi mo‘ljallangan 66 ming kilometr optik tolali aloqa liniyasi, ikki mingdan ziyod tayanch stansiya va yuzdan ortiq axborot tizimi soha rivojidagi navbatdagi bosqich sifatida baholanmoqda. Ular bevosita tadbirkor uchun hujjatlarni kechiktirmay topshirish qulayligi, shifokor uchun esa bemor haqidagi ma‘lumotni tezkor olish imkoniyati, qishloq maktabidagi onlayn darsning uzilmasligi kabi hayotiy holatlar orqali o‘z samarasini ko‘rsatadi. Shu tarzda qarorning mohiyati oddiy fuqaro uchun eng sezilarli jirralarini namoyon etadi.

Xizmatlarning shakli yangilanayotgani alohida voqe‘lik. Yuzdan ortiq yangi elektron xizmat taqdim etiladi, ularning bir qismi proaktiv tarzda ishlaydi, ya‘ni fuqaro murojaat qilmasdan turib ham zarur bildirishnomalar avtomatik tarzda yetib boradi. Mobil aloqa operatorlari, banklar va to‘lov tashkilotlari ilovalari orqali davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu davlat tizimining mavjud ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etishini anglatadi.

Shuningdek, 2025-yil 1-noyabrden mobil operatorlar, tijorat banklari va to‘lov tashkilotlari o‘z ilovalari orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi pulli xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu qulaylik xizmatlarni eng ko‘p ishlatiladigan platformalarga olib kiradi. Oradan bir oy o‘tib, ya‘ni 1-dekabrden nodavlat notijorat tashkilotlar idoralari integratsiya platformasiga ulanib, elektron hamkorlik asosida ish yuritadi. Shu orqali davlat tizimi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ham faol ishtirok etadi.

Ishxonaga yo‘l olarkansiz, telefon orqali murojaat yuborish, mahalla idorasiga bormasdan turib zarur xizmatlardan foydalanish, javobini kun tugamasidan olish — qarorning oddiy hayotga tatbiq etilgan ko‘rinishi aynan shunday ifodalanaadi. Shu tariqa qaror mazmunidan anglashiladigan maqsad kundalik ehtiyojlarning oson va tez bajarilishida, davlat bilan inson orasidagi masofa qisqarib borayotganida o‘z ifodasini topadi.

“Raqamli mahalla”

Mahalla — aholiga eng yaqin boshqaruv bo‘g‘ini. Ana shu asosga tayanib, mazkur qaror mahallaning kundalik ishini ham raqamli tartibga keltiradi. 2026-yil 1-yanvardan jitmioiy



yordamga murojaat qilish, oilaviy va demografik ma‘lumotlarni yuritish, fuqarolar bilan ishlash “Raqamli mahalla” platformasiga ko‘chadi. Xonadonlar ro‘yxati, yordam so‘rovining holati, bir oila uchun zarur hujjatlar — barchasi bir tizimda jamlanadi. Mahalla idorasiga kelgan fuqaroga murojaat raqami orqali bosqichma-bosqich xizmat ko‘rsatiladi.

2025-yil 15-oktabrga qadar Mahallalarning markazlashgan reyestri ishga tushadi va har bir mahalla fuqarolar yig‘ini kadastr raqami orqali yagona identifikatorga ega bo‘ladi. 1-noyabrden reyestr davlat tizimlarida majburiy tarzda qo‘llanadi. Hudud nomlanishidagi farqlar, ko‘cha raqamlaridagi chalkashliklar, bir obyekt turli tizimlarda turlicha ko‘rinishi kabi muammolar bartaraf etiladi. Bu tartib byudjetdan ajratmalarni ham, mahalla ehtiyojini ham aniq ifoda etadi. Aytaylik, qaysi ko‘chani yoritish kerak, qaysi xonadonga ijtimoiy yordam zarur, qaysi nuqtada yangi xizmat ochilishi lozim — hammasi yagona kartinada ko‘rinadi.

Shuningdek, kadastr tizimi yangilanishi reja qilingan. 2026-yil 31-dekabrghacha ko‘chmas



mulk obyektlarining barcha ma‘lumotlari “UZKAD” bazasiga o‘tkazilib, WGS-84 geokoordinatalariga bog‘langan yagona davlat manzil reyestri shakllantiriladi. Xaritadaagi har bir nuqta hujjatlar bilan mos kelishi yer munosabatlarida aniqlik, soliq bazasida tartib, kommunal xizmatlarda hisobning to‘g‘riligi, favqulodda vaziyatlarda tezkor yo‘nalish demakdir. Masalan, yong‘in-qutqaruv ekipaji kerakli hovlini izlab vaqt yo‘qotmaydi, suv ta‘minoti tizimida nosozlik bo‘lsa, ta‘mirlash brigadasi aniq manzilga yo‘naltiriladi, soliq to‘lovlarida ortiqcha bildirishnoma yoki takror hisob-kitoblar kamayadi.

Raqamli tartib soha va tarmoqlar ishini fuqaroga yanada yaqinlashtiradi. Sog‘liqni saqlashda 2026-yil 1-maydan nogironlikni belgilash xizmati kompozit tartibda ko‘rsatiladi. Shifokor xulosasidan so‘ng imtiyozli davolanish uchun yo‘llanma va elektron naviat bir yo‘la shakllanadi. Fuqaro alohida-alohida idoraga borib hujjat yig‘maydi, murojaat ortidan ma‘lumot tizimlaridan almashinadi. Bu tartib ko‘p bolali ona, keksa bemor yoki ish vaqtini tejamoqchi bo‘lgan har bir odam uchun yengillik. Shu yilning yakuniga qadar “Shifokorning raqamli yordamchisi” platformasi ishga tushadi. Qisqacha aytganda, qog‘ozbozlik qisqaradi, navbatlar ixchamlashadi, tashxis va davolash bosqichlari izchil tartibga tushadi. Mahalla, kadastr, sog‘liqni saqlash — uch turli soha bir yo‘nalishda ishlay boshlaydi. Qaror ana shu nuqtada to‘lovchi halqa vazifasini bajaradi, ya‘ni ma‘lumot manzili xaritada, javobgarlik manbai tizimlarda, xizmat esa fuqaroga eng yaqin nuqtada joylashadi.

Axborot tizimining integratsion servisi

Yaqin ikki yil ichida turli sohalarda bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan yangiliklar o‘zaro aloqador tizimning bir butun ko‘rinishini ochib beradi. Avvalo, ta‘lim sohasida 2025-yil 1-noyabrden boshlab davlat oliy ta‘lim muassasalari talabalariga oyma-oyma to‘lanadigan ijara xarajatlarining bir qismini qaytarish uchun Yagona portal orqali murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Oradan ko‘p o‘tmay, 2026-yil



texnologiyasini joriy etadi. Bu texnologiya orqali har bir ma‘lumot manbai ishonchli, turli tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvi tez va xavfsiz bo‘ladi.

Davlat axborot tizimlarining “yuragi” sifatida yagona platforma shakllanadi. 2026-yil 1-dekabrghacha “OASIS” — O‘zbekiston axborot tizimining integratsion servisi ishlab chiqiladi. Shu orqali barcha davlat tizimlarida yagona texnologik yondashuv asosida xizmatlar modullarga ajratiladi, integratsiya API vositasida boshqariladi, versiyalar bir markazda nazorat qilinadi. Audit jumallari, kirish huquqlari, tezkor xazira va barqarorlik mexanizmlari umumiy standartda ishlaydi. Natijada “Raqamli mahalla”da yangilangan manzil ro‘yxati soliq, kommunal, favqulodda xizmatlar va statistika tizimlarida vaqt yo‘qotmasdan aks etadi, foydalanuvchi bir marta ma‘lumot kiritsa, qolgan idoralarga takror so‘rashga hojat qolmaydi.

Yangi iqtisodiyotning lokomotivi — startaplar uchun ham yo‘l ochiladi. “Raqamli startaplar” hamda Markaziy bankdagi loyihalar 2025-yil 1-noyabrden Raqamli ma‘lumotlar platformasidan bir yilgacha bepul foydalanadi. Bu kirish bosqichidagi xarajatlarni sezilarli kamaytiradi.

Ko‘rinib turibdiki, qarorda sanab o‘tilgan bandlarning barchasi alohida sohalarga oid bo‘lsa-da, ularning mohiyati yagona tamoyilda birlashadi. U ham bo‘lsa, turli xizmatlarni qog‘ozdan raqamga ko‘chirish, fuqaroga yaqinlashtirish va ularni ortiqcha tartiblardan xoli qilishdir. Qisqacha aytganda, davlat tizimlari o‘rtasidagi masofa qisqaradi, fuqarolar kundalik hayotida tez va qulay yo‘l bilan o‘z ishini hal qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Natijaga yo‘naltirilgan mezon

2026-yil 1-yanvardan AT park rezidentlari uchun yangi tartib kuchga kiradi. Endilikda ular reklama xizmatlari va dasturiy ta‘minot obunalarini bo‘yicha to‘lovlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi. Bu to‘lovlar yil davomida faqat eksport tushumlari hisobidan qoplanadi, umumiy miqdor esa 500 ming AQSH dollaridan oshmasligi belgilangan. Chegara o‘z o‘rnida moliyaviy intizomni saqlashga xizmat qiladi, shuningdek, kompaniyalarga byudjetini rejalashtirishda aniq mezon beradi.

Yangi tartib reklama joylashtirish masalasini ham qat‘iy tartibga soladi. AT park rezidentlari o‘z mahsulotlarini faqat hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va yuz milliondan ortiq auditoriyaga ega axborot resurslari hamda tizimlarida targ‘ib qila oladi. Bu talab reklama xarajatlari bevosita maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilishini kafolatlaydi, startap va kompaniyalar uchun esa ortiqcha tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

Xorijdan keladigan to‘lovlar masalasida ham yengillik berilmoqda. AT park rezidentlari o‘z dasturiy mahsulotlari uchun xorijiy mijozlardan ommaviy oferta asosida obuna to‘lovlarini qabul qilishi mumkin. Bu jarayonda “E-kontrakt” tizimiga ma‘lumot kiritish talabi ko‘yilmaydi. Shunday qilib, global miqyosda xizmat ko‘rsatayotgan kompaniya to‘lovlarini soddaroq qabul qiladi, mijoz esa ortiqcha hujjatbozlikdan qutuladi.

Bu yangiliklar boshqa qarorlar bilan uyg‘un holda ishlashini ham unutmamak lozim. Masalan, ilgari mobil operatorlar, banklar va to‘lov tashkilotlari uchun Yagona portal orqali pulli davlat xizmatlarini taqdim etish imkoniyati ochilgan edi. Endi esa reklama, obuna va xorijiy to‘lovlar tartibiga solinib, barchasi yagona ekotizimga ulanadi. “OASIS” platformasi esa idoralararo integratsiyani aniq standart asosida boshqaradi, xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi. Umuman olganda, ushbu mexanizm AT park rezidentlariga xalqaro bozorda faolroq ishlash, reklama xarajatlarini samarali rejalash, obuna infratuzilmasini soddalashtirish va moliyaviy jarayonlarni shaffof yuritish imkonini beradi. Shu yo‘l bilan mahalliy texnologik kompaniyalar global maydonda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashiga zamin yaratiladi.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat



DOLZARB MASALALAR VA IJOBIY NATIJALAR

Ozarbayjonning Gabala shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida davlatimiz rahbari turkiy dunyo birdamligini mustahkamlash, jahon siyosati, iqtisodiyoti va gumanitar sohadagi rolini oshirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, xavfsizlik va siyosiy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Samarqandda TDT tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlarining birinchi qo‘shma uchrashuvini o‘tkazishni taklif qildi. Shuningdek, Strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik to‘g‘risidagi shartnomani qabul qilish hamda Turkiy davlatlar tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish taklifini bildirdi.



Alisher SAMADOV,
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali direktori

Turkiy xalqlar faqat til, madaniy-ma‘naviy jihatdan emas, balki savdo-iqtisodiy nuqtayi nazardan ham doimiy hamkorlardir. Bu borada qancha qulaylik, yengillik yaratilsa, barcha uchun shuncha yaxshi. Rivojlanish yanada jadallashadi, xalqlar farovonlashadi.

Davlatimiz rahbarining Toshkentda Iqtisodiy sheriklik bo‘yicha doimiy kengash va loyiha ofisini tashkil etish, O‘rta yo‘lakni “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va Transafg‘on yo‘lagi bilan bog‘lash, bojxona tartibotini raqamlashtirish, tariflarni optimallashtirish taklifi ham alohida ahamiyatga ega. Sanoat alyansi, “Turkiy yashil yo‘laklar” va “Yashil transformatsiya” konsorsiumlarini yaratish,

bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi zamonga mos rivojlanishga qaratilgan sa‘y-harakatdir. Chunki bugungi taraqqiyot davrida ilg‘or texnologiya, sun‘iy intellekt har sohaga jadal kirib kelmoqda. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar bilan hamqadam bo‘lish har qachongidan zarur. O‘zbekistonda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilishi hamda Turkiy dunyo xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazilishi mutaxassislar tayyorlash, qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish uchun ayni muddao bo‘ladi. Xalqaro oliygoh innovatsiyalar maydoni sifatida taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ekstremizm va radikal mafkuraga qarshi kurashish, yoshlarning ekologik savodxonligini oshirish, 2026-yilda “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi — turkiy dunyo ma‘naviy hayotida” xalqaro konferensiyasi hamda “Turkiy ilm-fan va innovatsiyalar kunlari” o‘tkazilishini barcha ishtirokchilar qo‘llab-quvvatladi.

Sammit davomida hamkorlik samaradorligini oshirish va qator ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha



“Turkiy xalqlar faqat til, madaniy-ma‘naviy jihatdan emas, balki savdo-iqtisodiy nuqtayi nazardan ham doimiy hamkorlardir. Bu borada qancha qulaylik, yengillik yaratilsa, barcha uchun shuncha yaxshi. Rivojlanish yanada jadallashadi, xalqlar farovonlashadi.

shuningdek, organik qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ekspertlar guruhi tashkil etish hamda turkiy organik mahsulotlar brendini jahon bozoriga olib chiqish esa bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Innovatsiya va ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida sun‘iy intellekt hamda kreativ iqtisodiyot

ko‘p tomonlama sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar qabul qilinishi savdo, raqamli texnologiyalar, transport-oli b chiqish esa bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Innovatsiya va ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida sun‘iy intellekt hamda kreativ iqtisodiyot

6

2025-yil 11-oktabr, 209-son

YANGI O‘ZBEKISTON

SOG‘LOM TURMUSH SAHIFASI

UZOQ VA MAZMUNLI QAYSI ODAT VA TANLOVLARGA BOG‘LIQ? UMR KECHIRISH

Hayot atalmish neʼmatning qadriga yetish, umrni mazmunli, chiroyli oʻtkazish har kimning maʼnaviy qarashi, turmush tarziga bogʻliq. Sogʻlom turmush tarzi esa hayotning har bir lahzasidan quvonish, yangi kuch, ertangi kunga umid, qalbda shukronalik orqali shakllanadi. Jismoniy faollik toʻgʻri ovqatlanish, yetarlicha uxlash, ruhiy barqarorlikning ahamiyati xususida Salomatlik va strategik rivojlanish instituti boshqarma boshligʻi, tibbiyot fanlari nomzodi Feruza TOHIROVA bilan suhbatlashdik.

— Bugungi kunda sogʻlom turmush tarzi targʻiboti yetarli deya olmaymiz. Buning uchun yana nimalarga eʼtibor qaratish kerak, umuman, targʻibotning taʼsirchan usullari ishlab chiqilyaptimi?

— Buni institutimiz misolida aytadigan boʻlsam — ha. Soʻnggi paytlarda bu borada muayyan ishlar qilinmoqda. Xususan, mutaxassislarimiz tomonidan tana vaznini oʻlchash orqali odam oʻzining salomatligini baholab, shunga yarasha sogʻlom turmush tarzi, sogʻlom ovqatlanish tamoyillarini oʻrgatadigan, 40 yoshdan katta boʻlgan insonlar orasida yurak-qon tomir kasalliklari xavfini baholaydigan telegram botlar va mobil ilovalar yaratildi. Bugun hududlarda ulardan foydalanish tartiblari toʻgʻrisida keng targʻibot qilinmoqda.

Shuningdek, oʻzbek tilida sogʻlom turmush tarzi haqidagi savollarga javob beruvchi “Alomaxon” sunʼiy intellekt yordamchisini yaratdik. Unda istagan odam salomatligi haqidagi savollariga istagan vaqtda asosli javob olishi mumkin. Tibbiyotning yuqori dalillariga asoslangan bu maʼlumotlar kishiga salomatligi va turmush tarzini nazorat qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, har bir aholi yashash punktida sogʻlom turmush tarzi markazlarini tashkil etish harakatidamiz. Bunda diyetolog-nutritsiolog hamda jismoniy faollik boʻyicha mutaxassis sholiga sogʻlom turmush tarziga rioya qilish, ratsional ovqatlanish, jismoniy harakatda boʻlish tartiblari boʻyicha maslahat beradi.

Hozir individual profilaktika birlamchi tibbiy muassasa xodimlari, yaʼni oliyviy shifokorlar va patronaj hamshiralari zimmasiga yuklatilgan. Afsuski, har doim ham ularning bunga vaqti yetmaydi. Shu bois, zamonaviy, xalqaro amaliyotga asoslangan usullarni qoʻllash maqsadga muvofiq.

Aholi orasida xabardorlik oshirilyapti, lekin bu ishlar yetarli emas. Televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali sogʻlom turmush tarzi haqida videoroliklar, maqolalar, bannerlar tarqatish, ilhomlantiruvchi va qiziqarli reklama kompaniyalari oʻtkazish lozim. Sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlovchi jamoalar tashkil qilish, sportchilar, taniqli insonlar, shifokorlar orqali targʻibot qilish samara berishi shubhasiz. Ular oʻz faoliyati va hayoti misolida sogʻlom turmush tarzini namoyish etishi kerak. Hayot sifatini yaxshilash haqidagi tadqiqotlarni aholi eʼtiboriga havola qilib borish orqali xabardorlikni oshirish galdagi vazifamiz. Lekin bu bilan odamlarni tezda sogʻlom turmush tarziga oʻrgata olmaymiz. Chunki insonning xulq-atvorini oʻzgartirish qiyin. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

shart. Bunga, masalan, ortiqcha tuz, shakar, transyogʻlar kiradi. Transyogʻlar semizlikka va keyinchalik yurak-qon tomir kasalliklariga, hatto qandli diabetning ikkinchi turiga sabab boʻluvchi moddalardir.

Toʻyib yeyabsiz, lekin baribir ochsiz. Bu “yashirin ochlik” deb ataladi. Bunga kaloriyaga boy, lekin tanaga foyda bermaydigan oziq-ovqat mahsulotlari sabab boʻladi. Fast-fud, shirinlik va gazli ichimliklar boʻsh kaloriyaga boy, tarkibida foydali moddalar yoʻq. Natijada tana kerakli ozuqani olmaydi. Holsizlik, immunitet pasayishi kuzatiladi. Ortiqcha vazn paydo boʻladi.

Meva-sabzavot, dukkaklilar, yongʻoq, pista-bodom bu muammoga munosib yechim boʻla oladi.

Keyingi yoʻnalish — mahsulotlarda yuqori biologik faol moddalar boʻlishi. Misol uchun, hayotiy muhim mikroelementlardan biri kalsiyni olaylik. Unga kunlik ehtiyoj 100 milligrammdan ortiqroq. Suyak va tishlar shakllanishi, yurak ritmini tartibga solish, mushaklar qisqarishi, shuningdek, qonning meʼyorida ivishi va asab tizimi faoliyatini taʼminlashda asosiy rol oʻynaydi. Kalsiy yetishmovchiligi osteoporoz, mushaklar tortishishi va yurak ritmi buzilishiga sabab boʻlishi mumkin. Sut mahsulotlaridagi probiotiklar foydali mikroorganizmlardir. Shu bois, ularning oziq-ovqat mahsulotlarida yetarli darajada boʻlishini, albatta, nazorat qilish lozim. Chunki bu ichaklardagi foydali



mikroorganizmlarni koʻpaytirib, hatto sogʻlom ovqatlanishga undaydi.

Biologik faol moddalarga omega-3 yogʻ kislotalarini kiritishimiz kerak. Aynan omega-3 yogʻ kislotalari hosil boʻladigan toksik moddalarni kamaytirib, kasalliklardan qalqondek asraydi. Bu moddaning ratsionimizda boʻlishi yurak-qon tomir va asab tizimlari uchun muhimdir. Shuningdek, immunitetni mustahkamlash, yalligʻlanishga qarshi kurashish va xotirani yaxshilashga yordam beradi. Oddiy zigʻir urugʻi, yongʻoq va shunga oʻxshash mahsulotlarda bu modda koʻp uchraydi. Dengiz baligʻidan olingan omega-3 yogʻ kislotalari eng afzalidir.

Chuqur ishlov beriladigan mahsulotlarda ortiqcha shakar, yogʻ, tuz, taʼm va hid beruvchi konservantlar saqlanadi. Ishlab chiqaruvchi uchun turli sunʼiy narsalardan mahsulot yaratish oson ish boʻlib qoldi. Unda hech qanaqa foydali modda yoʻq, boʻsh kaloriya. U sizga vaqtincha quvvat berishi mumkin, ammo zarari koʻproq.

Koʻpchilik shirin yogurtlarni sogʻlom ovqat deb oʻylaydi. Lekin bu chuqur ishlov berilgan



mahsulotlar sirasiga kiradi. Unga taʼm, rang beruvchi, konservantlar qoʻshilgan. Tarkibida probiotiklar, yaʼni foydali organizmlar bormi-yoʻq, nazorat qilish qiyin.

Atrofimizda juda koʻp endokrin dizraptorlar boʻlishi sogʻligʻimiz uchun yana bir zarar. Bu sunʼiy moddalar endokrin tizim faoliyatini pasaytiradi. Qalqonsimon bez faoliyati metabolizmi boshqaradi, oʻzgʻin-semiz boʻlishimizga taʼsir qiladi. Buyrakusti bezlari va jinsiy gormonlar yetishmovchiligi, notoʻgʻri ishlashi, umuman, insonning hayotiy faoliyatini pasaytirishi mumkin.

Yana bir jihat, xarid qilganimizda chek beriladi. Undagi yozuvlar boʻyoq emas, termoqogʻoz. Agar inson shu qogʻozni tez-tez ushlasa, endokrin dizraptor teri orqali uning badaniga kiradi. Bu endokrin tizim notoʻgʻri ishlashiga sabab boʻladi. Bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin.

Koʻpchilik ovqatlanganidan keyin oʻzi bilmagan holda ayrim zararli odatlarni bajaradi va sogʻligʻiga zarar yetkazadi. Masalan, ovqatdan keyin darhol choʻy ichish mumkin emas. Choʻy tarkibidagi tanin moddasi ovqatdagi temir moddasi soʻrilishini 87 foiz kamaytiradi. Natijada kamqonlik rivojlanishi mumkin.

Statistikaga koʻra, ovqatdan keyin shirinlik isteʼmol qilganlarning 75 foizi ortiqcha vazn bilan kurashadi.

Kechki ovqatdan keyin yotib olish insult xavfini oshiradi. Kamida ikki soat hushyor boʻlish kerak. Sovuq suv ichish ovqat hazm qilish jarayonini sekinlashtiradi va yogʻ toʻplanishiga sabab boʻladi. Chekish ichak taʼsirlanishi sindromini rivojlantirib, organizmda zararli toksinlar tezroq soʻrilishiga sabab boʻladi.

Vanna qabul qilishda ehtiyoj boʻling. Issiq suv qonni teriga yoʻnaltiradi. Hazz jarayoni esa sekinlashib, odam hushidan ketishi mumkin.

Darhol sport bilan shugʻullanish ham xavfli. Ovqatdan keyin organizm ovqatni hazm qilishga yoʻnaltiradi. Sport esa katta energiya talab qiladi. Kamida ikki-uch soat kutish maqsadga muvofiq.

Sogʻlom turmush tarzining asosiy tamo-yillaridan biri, shubhasiz, jismoniy harakat. Agar inson jismonan faol boʻlmasa, keyinchalik unda modda almashinuvi sekinlashib, ortiqcha yogʻ toʻplanishi kuzatiladi.

Ammo jismoniy mashgʻulot bilan shugʻullanish uchun ham sharoit kerak. Yurtimizda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Mahallalarda sport maydonchalari, bogʻlar, xiyobonlarda

yugurish, piyoda yurish yoʻlakchalari, yoʻllar chetida velosiped uchun alohida yoʻlaklar barpo etilayotir. Lekin eʼtibor bersangiz, velosipedchilar uncha koʻp koʻzga tashlanmaydi. Veloyoʻlaklarda faqat kuryerlarni koʻrish mumkin.

Chet el amaliyotida “sogʻlom shahar” konsepsiyasiga asosan qulay jismoniy va ijtimoiy muhitni yaratish orqali fuqarolar salomatligi va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar mavjud. Unga koʻra, koʻp qavatlí uylar atrofida jismoniy mashgʻulotlar bilan shugʻullanish uchun maydonchalar boʻladi. Misol uchun, yuqori qavatda turadigan insonga: “Siz jismonan faol boʻlishingiz kerak, koʻproq harakat qiling, piyoda yuring”, deyish mumkin. Lekin inson erinchoq, u charchab qolishdan qoʻrqadi. Har 500 metr masofada kichkina dam olish joylari, xiyobonlarni tashkil qilish bu masalaga yechim boʻladi. Uch-toʻrtta oʻrindiq va yashil hudud kishining bahri dilini ochadi. Insonlar bir oz yurib, keyin dam olishiga sharoit yaratiladi. Natijada sayr qilish, piyoda yurishga ishtiyoq ortadi. Bizda ham, ayniqsa, yoshi ulugʻlar uchun shunday sharoitni yaratish muhim.

— Tana va ongda toʻliq tiklanish, ruhiy barqarorlik sogʻlom uyqu bilan bogʻliq. Ammo kuzatuvlar soʻnggi paytlarda kechki faollik kuchayganini koʻrsataypti. Masalan, kechqurun ishlayotganlar ham kam emas. Buning salomatlikka taʼsiri nechogʻliq?

— Agar inson oʻz vaqtida yoki yetarli darajada uxlamasa, endokrin tizim buzilishiga sabab boʻladi. Kunduzi kortizol gormoni metabolizm, qon bosimi, immunitet tizimi va tananing stressga javobini tartibga solishda muhim rol oʻynaydi. Lekin uyqu gormoni, yaʼni melatoninning koʻpayishi hisobiga u kechasi pasayishi lozim. Agar pasaymasa, keyinchalik modda almashinuvi buzilishiga olib kelishi, hatto tana vazni oshishi, asabiylik, umuman, sogʻliqqa ziyon qilishi mumkin. Ertalab melatonin pasayadi, kortizol oshadi va shunda biz uygʻonamiz. Bu holat ultrabinafsha nurlar taʼsirida boʻladi. Kunduz kuni qorachiq orqali ultrabinafsha nurni sezamiz va u orqali bizda hayotiylik gormoni oshadi. Kechqurun quyosh nuri pasaygandan keyin shu taʼsir orqali melatonin oshib, kortizol pasayadi. Agar koʻz qorachigʻimiz doimiy ravishda sunʼiy boʻlsa ham ultrabinafsha nurlar taʼsirida boʻlsa, melatonin gormoni kam ishlab chiqariladi, kortizol pasaymaydi. Bu keyinchalik qonda qand, xolesterin miqdori oshishiga olib keladi. Yana bu holat kechqurun taomlanishga turki beradi. Kech ovqatlanish esa foydali emas.

Shuning uchun, albatta, kechqurun oʻz vaqtida uxlashi lozim. Ayniqsa, uyqu paytida bolalarda oʻshish gormoni ishlab chiqariladi. Bola kechasi uxlaganida oʻsadi, kattalarda esa uyquda mushaklar koʻpayadi. Ruhshunoslar insonlarni bioritmlariga koʻra, “toʻrgʻay” va “boyqush”larga ajratadi.

“Toʻrgʻay” ertalab bemalol vaqtlí uygʻonib, ishga kirishib keta oladigan, lekin faolligi tushgacha davom etib, keyin asta-sekin soʻnib boradigan odamlar toifasi. Ularga kunning birinchi yarmida jismoniy faollik bilan shugʻullanish tavsiya etiladi. Chunki asab tizimi shunga moslashgan. “Boyqush” esa kech uxlaydi, ertalab uygʻona olmaydi. Tushgacha ishga kirisha olmay, faqat tushdan soʻnggina ish boshlab, to keyingi kunning saharigacha faol harakatda boʻladi. Ammo ular baribir uxlashi kerak. Inson qancha kech uxlasa, unda koʻp uxlashga ehtiyoj shuncha ortadi. Aslida, bu shartli tasniflash. Lekin bunda jon bor. Har ikki toifaga mansub odamlar atrofimizda koʻp. Nima boʻlganda ham inson kamida 7-8 soat toʻlaqonli uxlay olishi kerak.

— Zamonaviy tibbiyotda ruhiy salomatlik sogʻliqni saqlash va mustahkamlashning eng muhim boʻgʻini hisoblanadi. Mutaxassislarning taʼkidlashicha, agar inson stressga qarshi tura olsa, 55 foiz holatda turli kasalliklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega. Stressga chidamlilik nimalarni oʻz ichiga oladi?

— Aholi orasida emotsional intellektni oshirish oldimizda turgan muhim masala. Inson oʻz hissiyotini yaxshi tushunishi kerak, “Men nima uchun shu ishini qilyapman?”, “Meni nima qiynayapti?”, “Nima menga xalaqit yoki foyda beradi?” kabi savolni tez-tez oʻziga berishi kerak. Qarshimizdagi insonning his-tuygʻusini tushunib, shunga yarasha muomala qilish koʻplab stressli vaziyatlarning oldini oladi.

Xalqimizda “odamgarchilik” degan goʻzal tushuncha bor. Ish joyimiz, oilamizda shu tushuncha amalda boʻlsa, ziddiyatli vaziyatlar, munosabatlarda muammolar kelib chiqmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bolalarga kichik yoshidan boshlab oʻz his-tuygʻularini tushunish va boshqalarning hissiyotiga eʼtiborli boʻlish oʻrgatiladi. Bu usul orqali aholi orasida stressga chidamlilikni oshirish mumkin.

— Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti hisobotida dunyoda keyingi oʻn yilda kattalar oʻrtasida jismoniy faollik 5 foiz pasaygani, agar bu tendensiya davom etsa, 2030-yilgacha kamharakatlik koʻrsatkichi 35 foizgacha oshishi mumkinligi ham aytilgandi...

— Yaqinda JSSTning Yevropa mintaqaviy byurosi ushbu tahlillarga asoslanib jismoniy faollik targʻibotiga doir yangi qoʻllanmani eʼlon qildi. Undan oʻrin olgan koʻrsatmalar sport mashgʻulotlari orqali aholi salomatligini mustahkamlashni koʻzda tutadi.

Taʼkidlanishicha, haftasiga 150 daqiqa oʻrtacha intensivlikdagi jismoniy faollik inson salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki 75 daqiqali kuchli jismoniy faollik ham buning oʻrnini bosa oladi. Kamharakatlik infarkti, insult, 2-tur qandli diabet, demans, koʻkrak va yoʻgon ichak saratoni kabi kasalliklar rivojlanish xavfini oshirishi haqida bot-bot takrorlansa-da, mutaxassislar yana bir bor bunga eʼtibor qaratishgan.

Qoʻllanmada eʼtiborga molik tavsiyalar berilgan. Keltirilishicha, Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi haftasiga 150 daqiqa jismoniy faol boʻlsa, 2050-yilgacha 11,5 millionta kasallanish holatining oldini olsa boʻlarkan. Jumladan, 3,8 million kishi yurak-qon tomir xastaliliklariga, 400 ming odam saratonga chalinish xavfidan himoyalangan. Qolaversa, bu orqali yiliga bemorlar salomatligini tiklashga sarflanadigan 8 milliard yevro miqdoridagi xarajatni tejash mumkin. Shunday ekan, aytar soʻzimiz — jismoniy faollik hayotingizning bir qismiga aylansin. Yurish, suzish, yoga va sport zali tanani va ruhni sogʻlom saqlashda juda muhim.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.
34751 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 22:45